

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

G. M. SHARIPOVA

MUSIQA VA UNI O'QITISH METODIKASI

O'quv qo'llanma

«TURON-IQBOL»
TOSHKENT
2006

«Musiqa va uni o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanmasi bo'lajak o'qituvchilarni bugungi kun talablari asosida aqliy, axloqiy, madaniy va ma'nnaviy jihatdan tarbiyalaydi, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlar majmuasi bilan tanishtiradi hamda metodik ko'nikma va malakalar bilan quollantiradi.

Mazkur o'quv qo'llanma 3140020 — musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha bo'lajak o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: SH.JANAYDAROV, Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
G.TOJIYEVA, 1-Toshkent Pedagogika kolleji musiqa kafedrasи mudiri,
SH. YAKUBOVA, Yu. Rajabiy nomidagi Toshkent Pedagogika kolleji o'qituvchisi.

KIRISH

Ushbu o'quv qo'llanma «Musiqa va uni o'qitish metodikasi» fanidan namuna sifatida yaratildi.

Musiqa san'ati — nafosat tarbiyasining muhim omili bo'lib, yosh avlodni kamolotga yetishishi uchun ta'sir etuvchi jarayon. Bu jarayon mактабдан boshlab shakllanadi va yosh avlodning ichki dunyosini boyitib, butun hayoti mobaynida unga hamroh bo'lib boradi. Musiqiy nafosat tarbiyasining o'zagi esa, boshlang'ich sinflarda boshlanadi. Musiqiy nafosat tarbiyasining asosi — musiqa madaniyati darslari hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini unumli o'tish va bolalarning mustahkam bilim olishlari uchun, bo'lajak musiqa o'qituvchisi musiqa madaniyati darslarida beriladigan barcha o'quv materiallarni puxta o'zlashtirib olishi lozim.

Musiqa madaniyati darslarida musiqiy ta'limning asosini tarkib toptirishda fortepiano cholg'u asbobi bilan birgalikda, o'zbek xalq cholg'ulari asboblarida musiqiy asarlarni ijro eta olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi xalq musiqa ijodi bilan tanishishi, atoqli kompozitorlarning hayoti va ijodini o'rganishi kerak. O'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashib, dastur talablariga muvofiq dars o'tishi mumkin.

Ma'lumki, musiqa darslari jamaa bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash kabi asosiy musiqiy faoliyatlarni o'zichiga oladi. Darsning har bir faoliyat turida turli bolalar musiqa asboblarida chalish, kuy va qo'shiqlarga mos raqs harakatlarini bajarish, musiqa asboblarini chalishni qo'l harakatlari bilan taqlid qilish, chapak chalish va dirijorlik qilish kabi elementlardan keng foydalanish darslarning yanada qiziqarli va jozibali bo'lishini ta'minlaydi. Barcha dars faoliyatlari bir-biri bilan uzviy, mantiqiy bir butunlikni vujudga kelitirishni taqozo etadi. Musiqiy faoliyatlarni o'zar o'mantiqiy uyg'unligi natijasida o'qitishning rivojlantiruvchi, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinflar musiqa madaniyati darslari bir o'quv yilda 34—35 soat o'tiladi. I chorakda — 9 s. II chorakda — 7 s. III chorakda — 10 s. IV chorakda — 8 s.

Bugungi kunda, musiqa madaniyati darslarini ilmiy-metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish, boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada musiqa madaniyati darslarini o'tishga doir metodik tavsiyalar berilgan. Shuningdek, DTS o'quv dasturi asosida har bir sinf uchun yil chorak mavzulari, keng ko'lamda kuylash uchun qo'shiqlar va musiqa tinglash uchun asarlar, musiqa savodi, musiqiy asarlarning badiiy va musiqiy tahlili, bastakorlar hayoti va ijodi o'z aksini topgan.

Pedagogik kollej boshlang'ich ta'lim yo'naliishi bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarga quyidagi vazifalarni amalga oshirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan:

1. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy uquvi va badiiy didini o'stirish.
2. Musiqani ijro etish tajribasini boyitish.
3. Musiqa tarbiyasida yangi uslub va vositalarni izlash.
4. Musiqiy asarlarda hayot va san'at o'rtaсидаги узви bog'liqliкни ifodalash.

5. Ijrochilik mahoratini o'stirish.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi o'quv qo'llanmaga dastur asosida kiritilgan asarlar bilan muntazam ishlashi, ularni tahlil qilishi, ijro yo'llarini izlashi, o'rgatilayotgan qo'shiqlar, tinglash uchun asarlarni ijro etishga harakat qilishi lozim.

Shuningdek, bo'lajak musiqa o'qituvchisi tanlagan kasbini sevishi, tinimsiz mehnat qilishi, ayniqsa, notaga qarab kuy, qo'shiq ijro etish malakasini o'stirib, asarlarni mustaqil o'rganish va ongli ravishda o'zlashtirish ustida ish olib borishi lozim.

«Musiqa va uni o'qitish metodikasi» fanidan o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi, o'rta maxsus o'quv yurtlari, pedagogik kollej o'quvchilarining boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini mazmunli qilib olib borishga qaratilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, pedagogika kollejlari va muktab boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchilarini uchun mo'ljallangan bo'lib, bildirilgan taklif va mulohazalar uchun o'z minnatdorchiligidan bildiramiz.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA O'QITISHNING MAZMUNI VA METODIKASI

I sinf

Boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limining poydevori shakllanadi. Shuning uchun 1-sinfdan boshlab, o'quvchilarni musiqaga qiziqtirish, musiqiy taassurotlarini tarkib toptirish va zaruriy musiqiy ko'nikma va malakalarini hosil etish asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Musiqa madaniyati darslarida, bolalar o'zлari sevgan qo'shiqlar, musiqali o'yinlar va raqlar bilan yaqindan do'stlashadilar, chirolyi va yoqimli qo'shiq kuylashni o'rganadilar, musiqa tinglash madaniyati bilan tanishadilar. Musiqiy asarda nima ifoda etilishi va ular qanday tasvirlanishini bilib oladilar hamda milliy kuy-qo'shiqlarni o'rganib boradilar. Shuning uchun, birinchi sinfdan boshlab, bolalarni musiqaga qiziqtirish lozim.

Birinchi sinf o'quvchilari, psixologik-fiziologik xarakterga ko'ra, ma'lum darajada, diqqat-e'tibori, nutqi, xotirasi to'liq rivojlanmagan bo'ladi. Shu bois bolalar serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar. Ovoz apparatlari to'liq shakllanmagani sababli, zaif va nozik, ovoz pardalari esa kuchsiz bo'ladi. Ovoz kuchi va tembri bo'yicha o'g'il va qiz bolalarda deyarli farq sezilmaydi. Shu sababli, ularda tovush falset tipida hosil bo'ladi. 1-sinf o'quvchilarining ovoz diapozoni — do₁ — lya; do₁ — do₂.

Ayrim bolalarning ovozlari normal holatda bo'lsa-da, ular sozga tusholmaydilar. Bunga sabab, ularda musiqa eshitish a'zosi bilan tovush hosil qilish apparati o'rtasida baland-pastlikni sezish bo'yicha umumiy muvozanat hali shakllanmagan bo'ladi. Shu bois, bolalarning musiqiy o'quv qobiliyatlari har xil bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda, bolalarning musiqiy qobiliyatlarini sinchiklab o'rganib, ularni differensional guruhlarga bo'lib, joylariga o'tkazish lozim. Chunki har bir musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarining qo'shiq o'rganish bilan birga, badiiy zavq olish, ijodiy fikrlash qobiliyati, nutqi, musiqiy uquvi rivojlana boradi.

Yil mavzusi: «Biz musiqani sevamiz».

I chorak: «Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar».

II chorak: «Musiqali o'yinlar, raqs va qo'shiqlar».

III chorak: «Xushnavo cholg'ularimiz».

IV chorak: «Xushnavo cholg'ularimiz».

II sinf

Ikkinchi sinf o'quvchilarini o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra, birinchi sinf o'quvchilaridan kam farq qiladi. Bu yoshdagи bolalarning diqqat-e'tibori bir narsadan boshqa narsaga tez-tez almashib turadi. Chunki ular o'yin bilan bog'liq bo'lgan narsalarga ko'proq moyil bo'ladilar. Darsning har bir elementini amalga oshirishda uning mohiyatini bolalar bilimi va hayotiy tajribalariga asoslanib tushuntirish lozim.

Ikkinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni — do₁ — re₂ atrofida bo'ladi. Dars unumi, o'quvchilarda hosil bo'lgan yorqin musiqiy taassurotlar va badiiy-ijodiy kechinmalari, musiqaning tuzilish va ifoda vositalari haqidagi bilimlari boyishi hamda malakalarining takomillashuvi bilan

o'chanadi. O'quvchilarning 1-sinfda olgan abstrakt bilimlari, 2-sinfda konkretlashadi. Masalan, 1-sinfda bolalar marsh musiqalarini jadal qadam tashlash bilan ajratgan bo'lsalar, 2-sinfda esa marsh musiqa janr ekanligi, shu bilan birga marshlar hayotda turlicha bo'lishi (sport, bayram, o'quvchilar, o'yinchoqlar marshlariga bo'linishi) haqida konkret bilim va tushunchaga ega bo'ladilar. Shuningdek, o'quvchilar yakkanavozlik, jo'rnavozlik, cholg'uchilardastasi va yakkaxonlik haqida bilimlarga ega bo'ladilar.

Yil mavzusi: «Ijrochilik turlari, musiqa ifoda vositalari».

I chorak: «Yakkanavozlik, jo'rnavozlik jo'rsozlik».

II chorak: «Yakkanavozlik va yakkaxonlik».

III chorak: «Dasta turlari. Kuy nima? Kuyda nima ifodalanadi?».

IV chorak: «Musiqa ifoda vositalari».

III sinf

Uchinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra, diqqat-e'tibori turg'un, xotirasi kuchli, ovoz apparatlari shakllangan, nutqi ravon, vokal-xor malakalari va musiqa haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar. Uchinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni — do₁ — re₂.

O'quvchilar o'quv jarayonida musiqaning hayotiyligi, soddadan murakkabga qarab uzlusiz rivojlanishi, musiqaning mazmuni va janrlari, tuzilishi va shakli, boshqa san'at turlari bilan aloqasi haqidagi bilimlarni, notaga qarab kuylash, ikki ovozda kuylashning boshlang'ich malakalarini egallaydilar. Musiqa tinglashga doir asarlarning xarakteri, sur'ati, mazmuni va ifoda vositalarini aniqlashda mustaqil fikr bildira oladigan bo'ladilar. Shuningdek, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish, faoliyatlarni aniq bajara oladigan, qo'shiqlarni sof intonatsiyada, jozibali kuylay oladigan bo'ladilar. Musiqiy asarlarni tahlil qilishda ham faol qatnashadilar.

Yil mavzusi: «Musiqaning ifoda vositalari».

I chorak: «Musiqa ifoda vositalari».

II chorak: «Xor va orkestr».

III chorak: «Musiqaning tuzilishi».

IV chorak: «Oddiy musiqa shakllari. Band va naqarot».

IV sinf

To'rtinchchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra tajribaga boy, ovoz apparatlari shakllangan, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat-e'tiborlari turg'un, jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatdan kattaroq bo'lgan asarlarni tinglab, mushohada qilish qobiliyatini o'zlashtiradilar. O'quvchilar sof unisonda, ikki ovozda, akapella, kanon shakllaridagi qo'shiqlarni kuylay olish malakalarini oshiradilar. IV sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni — do₁ — mi₂. Ular o'zbek xalq musiqa ijodining ommaviy janrlari, mavsum va marosim qo'shiqlari haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar.

Yil mavzusi: «O'zbek xalq musiqa ijodi».

I chorak: «Xalq aytimlari va cholg'ulari».

II chorak: «Bayram va marosim qo'shiqlari».

III chorak: «Mavsum qo'shiqlari».

IV chorak: «Bahor fasli qo'shiqlari».

MUSIQA MADANIYÀTI DARSLARINI O'TKAZISHGA DOIR METODIK TAVSIYÀLAR

Qo'shiq tanlash va uni o'rgatish tamoyillari

Har bir qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutib tanlanadi. Qo'shiqlarni tanlashda davomiylik, izchillik, ilmiylik va oddiydan murakkabga qarab borish tamoyiliga rioya qilinadi. Unda har bir yangi qo'shiq oldingisidan hosil etilgan vokal-xor malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo'shiq diapazoni o'quvchilar ovoziga mosligi, badiiy g'oyaviy mazmuni yil, chorak mavzulari, yil fasllari, bayramlari, o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak.

Qo'shiqlarni quyidagi talablarga ko'ra tanlash tavsiya etiladi.

- Qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, siyosiy-g'oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakterining o'quvchilar yoshiga mosligi.
- Qo'shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi, bolalarning lug'at boyligiga mosligi va ularning nutqini o'stirish uchun xizmat qilishi.
- Qo'shiq ohangi, uning xarakteri (xushchaqchaq, quvnoq, marsh, mungli), lad va tessiturasi, ovoz diapazoni o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi.
- Qo'shiqning badiiy xususiyati va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi.
- Qo'shiqning shakli, necha qismdan iboratliligi (1, 2 qismli yoki kuplet shaklida tuzilganligi), naqarotning mavjudligi.

Qo'shiqni tanishtirishda o'qituvchi qisqa, mazmunli, obrazli, qiziqarli hikoya qilib beradi. Qo'shiq mazmunidagi axloq-odob, tabiat, ona Vatan, mehr-muhabbat haqidagi g'oyalarni bolalar ongiga singdirib, ularda qiziqish uyg'otadi. So'ngra, qo'shiqni ifodali qilib, mayin ovozda ijro etib beradi. Qo'shiq mazmuniga mos tasviriy san'at suratlaridan yoki biror ko'rgazmali vositadan foydalanish kerak. O'quvchilar bilan qo'shiq mazmuniga va tuzilishiga xos savol-javoblar qilib, qo'shiqni musiqiy jumlalarga bo'lib o'rgatadi. So'ngra qo'shiq mazmuniga mos musiqiy-ritmik harakatlar bilan o'rgata boshlaydi. Matn va ohang talaffuzining aniqligi ma'lum me'yorga tushgandan so'ng, qo'shiqning badiiy ijrosiga erishiladi. Qo'shiqni vaqt vaqt bilan takrorlab kuylab turish lozim, aks holda uning matni o'quvchilar xotirasidan ko'tariladi va unga nisbatan qiziqish susayadi. Har bir darsda, ayniqsa, yangi qo'shiqni o'rgatishdan oldin, ilgari o'rgatilgan qo'shiqni takrorlab turish, bolalar ijrosidagi ayrim nuqsonlarni tuzatib borishga yordam beradi. Bolalar toliqmasligi uchun qo'shiq o'rgatish shakllari o'zgartirib turiladi. Masalan: guruhlarga bo'lib o'rgatish, yakkaxon va xor jo'rligida yoki musiqiy harakatlar yordamida amalga oshirilib, bolalar ovoziga dam beriladi. Qo'shiq mukammal o'rgatilgandan so'ng, ularning qiziqishi yanada ortadi. Shuningdek, dars shakllarini (noan'anaviy darslar) o'zgartirib turish ham o'quvchilar zerikishining oldini olib, qiziqishini kuchaytiradi. O'quv yili davomida o'quvchilarga 12—14 ta qo'shiq o'rgatiladi.

Musiqa savodini o'tishga doir metodik tavsiyalar

Musiqa madaniyati darslari mazmunida o'quvchilarning musiqa savodxonligini tarkib toptirish muhim maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, musiqa savodi musiqa darsining ta'limiyl vazifasini bajaradi. Musiqa savodi faoliyatining negizi va pedagogik maqsadi, yangi dastur bo'yicha berilgan mavzularni savodli tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Musiqa savodi — musiqa san'ati haqidagi boshlang'ich tushunchalar tizimidan iborat. Shuning uchun ham, musiqa savodi darsning mustaqil musiqiy faoliyat tarzida emas, balki butun dars davomida, ayniqsa, jamoa bo'lib qo'shiq kuylash va musiqa tinglash uchun asarlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganiladi. Musiqa savodi o'quvchilar musiqa bilimining ongli takomillashuvida katta yordan beradi. Musiqa savodining kaliti va pedagogik ahamiyati, tanlangan qo'shiqlar va tinglashga doir asarlarni ongli ravishda idrok etib, ijro etish qoidalariiga doir yangi tushunchalar hosil qiladi. Har bir darsda o'quvchilarning musiqa haqidagi bilimlari boyib boradi. O'quvchilarning musiqiy taassurotlari va tajribalarining o'sishi, musiqani hayot bilan bog'lashda va musiqaning eng oddiy qonuniyatlarini haqidagi bilim doiralarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Musiqa tinglash madaniyatini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar

Musiqani tinglay bilish va undan zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi. Insonda musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan rivojiana boshlaydi. Bola, musiqa madaniyati darslarining barcha faoliyatlarini jarayonida, musiqani tinglab, uni idrok etadi. Ammo musiqa darslarining musiqa tinglash qismi oldida, o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo, shuni eslatish lozimki, insonda kuylash imkoniyatlariga ko'ra, tinglash imkoniyatlari ancha keng bo'ladi. Masalan: milliy cholg'u asboblar ansambli, orkestr, xor, yakka cholg'u, cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish mumkin. Shuning uchun ham musiqa tinglash jarayonida o'quvchilarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi.

Musiqa madaniyati darslarida musiqa tinglash uchun quyidagi talablarga ko'ra asarlarni tanlash tavsiya etiladi.

- O'quvchilarning idrokiga mos xalq, mumtoz va zamonaviy musiqiy asarlarni tinglash.
- O'quvchilarning musiqani idrok etish va musiqiy asarda tasvir etilgan badiiylikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berish, tinglangan asarlar nomlarini eslash, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqini bilish hamda tinglangan asarga ma'lum darajada baho bera olish.
- Musiqiy asarlarni ishtiyoq bilan tinglash va eslash, olgan taassurotlar haqida o'ylash va fikr bildirish.
- Musiqa tinglashda turg'un diqqat-e'tiborni va tinglash madaniyatini, boshlang'ich elementlarni shakllantirish.
- Musiqiy didni shakllantirishga oid qiziqarli, mazmunli asarlarni tinglash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqat-e'tibori uncha barqaror bo'lmasligi sababli, ular yorqin yangraydigan kichik hajmdagi musiqiy asarlarni idrok etishga qodir bo'ladilar. Ular, ayniqsa, kichik hajmdagi qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar, chunonchi, so'z va ohang birligi musiqaning mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Shuning uchun musiqa o'qituvchisi qo'shiq aytganda yoki biror cholg'u asarini ijro etganda, uning tanish ovozi, sof ohangi, ifodali ijrosi, mimikasi va ishoralari o'quvchilarni maftun etishi lozim. Shundagina, bolalarda bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish, qayg'urish, o'ylanish kabi holatlarni kuzatish mumkin.

Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishda o'qituvchining qisqa, lo'nda, mazmunli, qiziqarli kirish so'zi, musiqa tinglash jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Musiqiy asarni tinglashdan oldin o'quvchilarga ma'lumot berilsa, ular asarni to'liq idrok etishga harakat qiladilar. Musiqiy asarni ikki-uch mashg'ul davomida tinglash shart. Chunki, har bir tinglashda bola uchun asarning

yangi qirralari namoyon bo'ladi va unga nisbatan qiziqishi va muhabbati ortib boradi. Yildan yilga o'quvchilar o'z yoshiga, bilim va malakalariga muvofiq, musiqiy asarni to'la idrok etishga qodir bo'ladilar. O'quv yili davomida o'quvchilar 12—14 ta asar tinglaydilar.

Musiqali ritmik harakatlar bajarishga doir metodik tavsiyalar

O'quvchilarning aqliy, nafosat va jismoniy rivojida raqs, musiqali o'yinlar va musiqaga mos harakatlar bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda musiqa madaniyati darslarida, musiqaga mos harakatlar bajarish quyidagi vazifalardan iborat:

— o'quvchilarning musiqiy uquvi, ayniqsa, xotirasi, ritm tuyg'usi musiqaga mos harakatlar yordamida yaxshi rivojlanadi. Har qanday harakat turi musiqiy asarning sur'ati va ritmi ostida bajariladi, harakat bilan bog'liq bo'lgan musiqiy ohanglar bola xotirasida turg'un saqlanadi;

— raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, qomatining to'g'ri o'sishiga va badanini chiniqtirishga katta yordam beradi;

— musiqiy asarlar o'quvchilarda turlicha emotsional hislar uyg'otib, turlicha kayfiyatlar hosil etib, ularning ongida o'ziga xos obrazlar yaratadiki, bolalar asar mazmunini turli harakatlar va ishoralar bilan ifodalashga harakat qiladilar.

Demak, musiqaga mos harakatlar o'quvchilarning aqliy va nafosat qobiliyatini rivojlantirish bilan birga irodasini ham rivojlantiradi. Masalan, marsh — o'quvchida g'ayrat va tetiklikni, raqs — ajoyib ichki his-tuyg'ularni, kechinmalarni hosil etib, raqsga tushishga undaydi va zavqlantiradi.

Musiqiy asarlardan marsh, raqs va o'yinlar o'quvchilarga tez ta'sir etadi, shuning uchun ham quvnoq raqs, qiziqarli musiqali o'yinlar har bir bolaning e'tiborini o'ziga tortadi.

Musiqa madaniyati darslarida bajariladigan o'yinlar asosan ikki turga bo'linadi:

1. Qo'shiqning mazmuniga mos musiqali ritmik o'yinlar.

2. Raqslar.

1) Qo'shiq mazmuniga mos musiqiy-ritmik harakatlar qo'shiqning badiiy mazmuni, xarakteri va ifoda vositalariga mos tushishi shart. Qo'shiq mazmuni esa, ularning hayotiy tajribalarida, tabiat va hayvonot olami bilan munosabatlarida, xalq bolalar o'yinlarida o'z aksini topadi;

2) raqslar vositasida o'quvchilar milliy va qardosh xalqlar raqs harakatlari va musiqasi bilan yaqindan tanishadilar. Raqs musiqasiga mos milliy harakatlarni bajaradilar. Bunda o'quvchilarning dunyoqarashi, aqliy va nafosat tarbiyasi, musiqiy xotirasi, ritm tuyg'usi va diqqat-e'tibori rivojlanadi.

Shunday qilib, musiqiy o'yinlar o'z maqsad va vazifalariga ko'ra, didaktik o'yinlarga mansub bo'lib, asosan ritmik harakat vositasida ijro etilishi bilan ifodalanadi.

Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishga doir metodik tavsiyalar

Musiqa madaniyati darslarida bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg'ulotdir. Bolalar cholg'u asboblari jonli tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir o'quvchini qiziqtiradi. Chapak va bolalar cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish, musiqaning xarakteri va obrazlarni chuqurroq his etishda, ularga xos emotsional tuyg'ular hosil etish, ayniqsa, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyati darslarida bolalar cholg'u asboblaridan foydalanish ijobjiy natijalar berish bilan birga o'quvchilarning darsga intiluvchanligini, qiziqishi va musiqiy uquvini (xotirasi, ritmni his etish tuyg'usini, nutqini) o'stiradi. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishda, avval, o'quvchilar chapak chalib, ritmik jo'r bo'ladilar, o'qituvchi o'quvchilar kuy-ritmini to'g'ri his etib ijro etishlari uchun, bolalarga stol ustiga terib qo'yilgan cholg'u asboblarida chalib,

musiqaga jo'r bo'lishlarini aytib qo'yishi lozim. So'ng biror cholg'uda kuyni o'zi ijro etib, chapak bilan jo'r bo'lishni ko'rsatadi. Keyin barchani kuyga chapak chalib, jo'r bo'lishni taklif etadi va ijro jarayonini diqqat bilan kuzatib, bolalar cholg'u asboblarini tarqatish uchun ilg'or o'quvchilarni tanlaydi. Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf qilib, yana bir takrorlab, chiroyli, to'g'ri ijro etiladi. So'ngra musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan o'quvchilarga bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishni taklif etadi. Shu tarzda sinfdagi o'quvchilarni galma-gal bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lishga undab, ularning qiziqishini oshiradi. Cholg'ularda chalishga hamma intiladi, albatta. Shuning uchun berilgan asarni bolalar xato qilmay musiqani to'g'ri his etishga va xotirada saqlashga harakat qiladilar. Keyinchalik ijrochilik turlari murakkablashtiriladi. Ayni holda sinfnf ikki guruhga bo'lib, I guruh chapak chalib, II guruh ovozda usul berish bilan ham jo'r bo'lishi mumkin. Yana bir turi — o'qituvchi doirada usulni aniq va tekis chalib turadi. «Bum»ga I guruh bolalari «bak»ga II guruh bolalari jo'r bo'lishadi. Buni iloji bo'lsa magnitofon tasmasiga yozib olib bajarsa ham bo'ladi. Shuningdek, kuyni doskaga ko'rsatilgan grafik sur'ati va uning ritmiga tuzilmasini teng chorak va nimchorak notalar bilan ifodalash mumkin, biroq kartochkalardan foydalanilsa ham bo'ladi. Bunday mashg'ulotlarda dars mazmuni qiziqarli o'tadi, o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi, ularda ijodkorlik, ijrochilik malakalari va musiqiy o'quv qobiliyatlarining har tomonlama rivojlantirishni ta'min etadi. Musiqa darslarida bolalar cholg'u asboblarini qo'llash o'qituvchidan katta mas'uliyat, ijodkorlik va topqirlilikni talab etadi.

Musiqa darsida qo'llanadigan bolalar cholg'u asboblari ikki turga bo'linadi. Kuychan va kuychan bo'Imagan cholg'u asboblar. Kuychan cholg'u asboblarga: metallafon va ksilafon; kuychan bo'Imagan (shovqinli) cholg'u asboblarga: doirachalar, rumbalar, marakasalar, uchburchaklar, qo'ng'iroqchalar, shaqildoqlar, barabanchalar, yog'och qoshiqlar kiradi.

Musiqa darslaida bolalar cholg'u asboblaridan foydalanish o'quvchilarning tembr uquvi, ritm tuyg'usi, diqqati va xotirasini rivojlantiradi.

MUSIQIY ASARLARNING BADIY VA MUSIQIY TAHLILI

«Baxtiy erkatoy». To'lqin Toshmatov musiqasi, Haydar Muhammad she'ri.

Bu qo'shiqda erkatoy, dangassa Baxtiyor ismli bolakay haqida kuylanadi. Baxtiyor ertalab turib, choy ichmasligi, to'g'ri yo'l qolib loy kechishi, darslarni qoldirib yurishi haqida. Qo'shiq erkatoylik, yalqovlikning oxiri voy bo'lishi, hamma bolalar oldida uyalib qolishi haqida. Qo'shiq quvnoq, sho'õ, yengil va o'ynoqi xarakterda bo'lib, o'rtacha tez sur'atda ijro etiladi. Do-major tonligida yozilgan. Qo'shiq hazil mazmunida bo'lib, bolalarni odobli, mehnatsevar bo'lishga chorlaydi.

«Paxtaoy». Fattoh Nazarov musiqasi, To'lqin Ilhomov she'ri.

Bu qo'shiqda mustaqil O'zbekistonimizning boyligi, g'ururi bo'lgan paxta haqida kuylanadi. Qo'shiqda paxtaning dalalarda lo'ppi-lo'ppi ochilib, osmondag'i yulduzlardek sochilib, chanoqlarni to'ldirib, odamlarning ko'nglini xushnud etishi haqida kuylanadi. Bu qo'shiq sol-major tonligida yozilgan. Sho'x, quvnoq xarakterda. Tez sur'atda ijro etiladi. Kuplet shaklida yozilgan. Bu asar bolalarda Vatanga muhabbat, tabiatga mehr tuyg'ularini tarbiyalaydi.

«Buvijonim». Dilorom Omonullayeva musiqasi, Yo'Idosh Suyunov she'ri.

Bu asar mehribon, qadrdon, sevimli buvijonlarimiz haqida. Qo'shiqda buvilar nevaralarini erkalab, ertaklar aytib berishlari, shirinso'zliklari ifodalanadi. Buvilar nevaralarini judayam yaxshi ko'rishlari, bir kun ko'rismasa, sog'inib qolishlari, uyimizning eng qadrli, aziz insoni ekanliklari haqida kuylanadi. Qo'shiq kuyi ohista va mayin bo'lib, unda g'amxo'r va mehribon buvilarimizning qiyofalari o'z aksini topgan. Asar qo'shiq-raqs janrida yozilgan. Re-major tonligida. Shoshmasdan, quvnoq, tez sur'atda ijro etiladi. Kuplet shaklida.

«Yangi yilim — yaxshi yilim». Doni Zokirov musiqasi, Po'lat Mo'min she'ri.

Bu qo'shiq barcha intazorlik bilan kutadigan bayram — yangi yil haqida. Yangi yilda bolalar ta'tilga chiqib, archa bayramlariga borishlari, quvnab-xursandchilik qilib, bahr-dillari ochilishi va har yangi yilni yaxshi o'qishlar, a'lo baholar bilan kutib, bayramni maqtashdan charchamasliklari haqida kuylanadi. Bu qo'shiq quvnoq, sho'x, raqs xarakterida ijro etiladi. Qo'shiq-raqs janrida, Do-minor tonligida yozilgan. Kuplet shaklida. Tez sur'atda ijro etiladi.

«Nevaralar qo'shig'i». Nadim Norxo'jayev musiqasi, Safar Barnoyev she'ri.

Ushbu qo'shiq shirin so'zli, beozor, mehribon buvi va bobolarimiz haqida yozilgan. Bolajonlarimizning niyatları pok va nurli bo'lishi, bobo va momolari bilan yashash qanchalik sururli ekanligi haqida zavq bilan kuylanadi. Asar kuplet shaklida yozilgan bo'lib, sho'x, quvnoq xarakterda ijro etiladi. Do-major tonligida. Tez sur'atda kuylanadi.

«Oy bo'lamiz, toy bo'lamiz». Habibullo Rahimov musiqasi, Safar Barnoyev she'ri.

Ushbu asarda bolalar kelajakda Amir Temur bobolaridek botir, qo'rmas, jasur bo'lishlari haqida kuylanadi. Yigitlar Alpomishdek, qizlar Barchinoydek zukko, bilimdon bo'lib voyaga yetishlari, ona Vatanga mehr-muhabbatli, sodiq, mard o'g'lon bo'lib xizmat qilishlari haqida madh etiladi. Bu qo'shiq kuplet shaklida. Qo'shiq-raqs xarakterida, tez sur'atda ijro etiladi. Fa-major tonligida.

«Bolalar va g'ozlar». Jamoliddin Najmiddinov musiqasi, Muhammad Qo'shoqov she'ri.

Bu qo'shiqg'ozlarning ko'llarda uchib-o'ynab, qo'shiq kuylab yurishlari, bolalar bilan do'stliklari,

doimo yaxshilikka, ezgulikka, do'stlikka intilib yashashlari haqida yozilgan. Kuplet shaklida ijro etiladi. Hazil-mutoyiba xarakterida, o'rtacha tez sur'atda ijro etiladi. Re-major tonligida yozilgan.

«Inoq o'ynaymiz». Fattoh Nazarov musiqasi, G'iyos Komilov she'ri.

Ushbu asarda bolalarning o'zaro do'stliklari haqida kuylanadi. Ular doimo birga o'ynab, o'qishlarda bir-birlariga yordam berishlari, goho po'm-po'm deb arazlashib, keyin bu eng yomon odatligi, birga inoq o'ynab, qalin do'st bo'lisl kerakligi haqida kuylaydilar. Qo'shiq rondo shaklida ijro etiladi. Sho'x, quvnoq xarakterida, o'rtacha tez sur'atda ijro etiladi. Fa-major tonligida yozilgan.

«Oy Vatanim». Shermat Yormatov musiqasi, Erkin Qambarov she'ri.

Bu qo'shiq Vatanimizning insonlar dilidan joy olganligi, bog'larining kengligi, bag'rining go'zalligi, mevalarinining shirin-shakarligi haqida. Vatan insonga suv va havodek zarurligi, inson Vatansiz yasholmasligi haqida kuylanadi. Qo'shiq mayin, cho'zib, ohista kuylanadi. Bu qo'shiq o'quvchilarning Vatanga muhabbat tuyg'usini o'stiradi. O'rtacha sur'atda ijro etiladi. Re-major tonligida yozilgan.

«Sog'lom avlod qo'shig'i». Shermat Yormatov musiqasi, Safar Barnoyev she'ri.

Bu qo'shiqda bolalarning orzu-umidlari haqida kuylanadi. O'zbekistonda quyosh charaqlab turishi, tinchlik barqarorligi madh etiladi. Shuningdek, bolalarning yuzga kirganlarida ota-onalari yonlarida bo'lislari haqida ham kuylanadi. Qo'shiq sho'x, quvnoq, raqs xarakterida ijro etiladi. Kuplet shaklida, fa-major tonligida.

«Aziz ustozlar». Sobir Boboyev musiqasi, To'lqin she'ri.

Bu qo'shiq aziz ustozlar haqida. O'quvchilar ustozlarni e'zozlashlari, ularning mehnatlarini qadrlashlari, hech qachon unutmasliklari haqida kuylanadi. Qo'shiq kuplet shaklida o'rtacha sur'atda ijro etiladi. Mi-minor tonligida yozilgan.

«Biz askarmiz». Nadim Norxo'jayev musiqasi, Iskandar Rahmon she'ri.

Bu qo'shiq Vatanimiz tinchligi uchun qalqon bo'lgan askarlarimiz haqida. Askarlarimizning yer-u osmon, ummonda qalqon bo'lib tinchlikni, barcha marralarni jasur o'g'lon bo'lib himoya qilishlari haqida kuylanadi. Marsh xarakterida ijro etiladi. Fa-major tonligini yozilgan.

«Kichkintoymiz — gijingtoymiz». Komil Kenjayev musiqasi, Po'lat Mo'min she'ri.

Bu qo'shiqda o'quvchilarning bir-biri bilan ahilligi, do'stligi haqida kuylanadi. Bolalarning hazillashib, quvlashib o'ynaganlari, o'sib katta bo'lib, kuch to'plab, sog'lom, odobli bolalar bo'lib o'sishlari haqida madh etiladi.

Qo'shiq tez sur'atda ijro etiladi. Re-minor tonligida, kuplet shaklida yozilgan.

«Shirintoy». Aleksandr Berlin musiqasi, Umida Abduazimova she'ri.

Bu asarda jajji Shavkatjonning shirin choyni yaxshi ko'rishi, uni hamma erkalab Shirintoy deb atashi haqida kuylanadi. Shirintoy — Shavkatjonning dangasa, erinchoqligi, bunday bolalarni to'g'ri tarbiyalash va erkatoy bo'lishiga yo'l qo'ymaslik haqida bayon etiladi. Ushbu qo'shiq kuplet shaklida yozilgan, quvnoq, sho'x sur'atda ijro etiladi. Re-major tonligida.

«O'ynasangchi tipratikon». Nadim Norxo'jayev musiqasi, Po'lat Mo'min she'ri.

Bu qo'shiqda o'quvchilarning tabiatga, hayvonot olamiga bo'lgan muhabbati ifodalanadi. Bolajonlar tipratikonga mehr qo'yib, uni davraga tortib, raqsga taklif etadilar. Tipratikon hamma yog'lari tikan bo'lgani uchun raqsga tushishga tortinadi. Bolalar esa uni erkalab o'z do'stlari deb ataydilar. Bu qo'shiq kuplet shaklida yozilgan. Sho'x, raqs xarakterida, tez sur'atda ijro etiladi. Fadiyez-major tonligida yozilgan.

«Ayiqpoltvonlar bog'chasi». To'lqin Toshmatov musiqasi, Haydar Muhammad she'ri.

Bu qo'shiqda ayiqpoltvonlar haqida kuylanadi. Ularning o'rmonda to'planishib, maza qilib asal yalashlari, qo'l ushlashib quvnoq qo'shiqlar aytishlari haqida. Bolalar bu qo'shiqni zavq bilan kuylaydilar. Qo'shiq kuplet shaklida yozilgan. O'rtacha sur'atda ijro etiladi. Quvnoq, sho'x xarakterda, Mi-bimol-major tonligida yozilgan.

«Quyon». Qo'Idosh Ma'mirov musiqasi, Ilyos Muslim she'ri.

Bu asar bolalarning quyonga g'amxo'rligi, uni barra o'tlar bilan boqishlari va parvarishlab qarashlari haqida kuylanadi. Qo'shiq kuplet shaklida, quvnoq, sho'x xarakterda, tez sur'atda ijro etiladi. Do-minor tonligida yozilgan.

«Diyor madhi». Nadim Norxo'jayev musiqasi, Habib Rahmat she'ri.

Bu qo'shiqda ona Vatanimizning bepoyonligi, obro'-e'tiborga ega ekanligi, kelajak avlod bu Vatanni asrab, unga xizmat qilishi, uning ishonchini oqlashi haqida kuylanadi. Re-minor tonligida, kuplet shaklida yozilgan.

«Muzqaymoq». Avaz Mansurov musiqasi, Erkin Qayumov she'ri.

Bu qo'shiqda muzqaymoqning sutday oppoqligi, mazaliligi, muzdekligi haqida kuylanadi. Muzqaymoqni chaynamasdan yeyilsa ham, og'izda mazasi qolishi haqida yozilgan. Qo'shiq quvnoq, sho'x xarakterda ijro etiladi. Do-major tonligida yozilgan.

«Diloromning qo'shig'i». Dilorom Omonullayeva musiqasi, Ibrohim Donish she'ri.

Ushbu asarda jajji, quvnoq qiz Dilorom haqida kuylanadi. Quvnoq va xushovoz qiz Dilorom qo'shiqlar aytib, doimo shod, xushchaqchaq bo'lib yuradi. Kuplet shaklida yozilgan ushbu qo'shiq sho'x, quvnoq, kuychan xarakterda ijro etiladi. Tez sur'atda, ijro etiladi. Fa-major tonligida yozilgan.

«Qish chog'lari». Fattoh Nazarov musiqasi, Po'lat Mo'min she'ri.

Qo'shiqda qish faslining yoqimliligi, hamma yoq oppoq bo'lib, go'yo oq chamanzorga o'xshashligi, sovuq havoda qorbo'ron o'ynash sog'liq uchun foydali ekanligi haqida kuylanadi. Kuplet shaklida yozilgan, o'rtacha sur'atda ijro etiladi. Re-minor tonligida.

«Ochil paxtajon». Mutal Burhonov musiqasi, Tolib Yo'Idosh she'ri.

Oq paxta o'lkamizning husni ekanligi, baxtimiz ham paxtamiz singari doimo kulib turishi, yiqqan xirmonimiz ko'klardan oshishi haqida kuylanadi. Qo'shiq mayin, o'rtacha sur'atda ijro etiladi. Mi-minor tonligida, kuplet shaklida yozilgan.

«Yaxshi bola». Nadim Norxo'jayev musiqasi, Po'lat Mo'min she'ri.

Bu asarda bolalarning odob-axloqlari haqida kuylanadi. Bunda yaxshi bola elga manzurligi, ikki baho olmasligi, maktabga kech qolmasligi, ish buyursang xo'p bo'ladi, deb tez bajarishi, o'rtoqlarining ko'p bo'lishi, yaxshiligi yuz-ko'zidan sezilishi haqida yozilgan. Qo'shiq tez va quvnoq sur'atda ijro etiladi. Kuplet shaklida, mi-major tonligidan ijro oxirida fa-major tonligiga o'tiladi.

JAMOA BO'LIB QO'SHIQ
KUYLASH UCHUN ASARLAR

I SINF

BAXTIY ERKATOY

Haydar Muhammad she'ri

To'lqin Toshmatov musiqasi

§ Sho'x va quvnoq

Voy, voy, voy - voy, Bax - tiy er - ka -
toy

Er - ta - lab ty - rib, ich mas - e - kan - choy.

Tamomlash ushun

Voy, voy, voy. _____

Voy, voy, voy, voy,
Baxtiy erkatoy,
Ertalab turib
Ichmas ekan choy.

Voy, voy, voy, voy,
Baxtiy erkatoy,
To'g'ri yo'l qolib,
Kechar ekan loy.

Voy, voy, voy, voy,
Baxtiy erkatoy,
Darsin qoldirib,
Keyin ishi voy.

O'YNASANGCHI, TIPRATIKON

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Allegretto

Sen ham ~~ke - lib~~ masangchi,

Qarab turing, o'yin tushay,

Sen ham ke - lib o'y - na - sang - chi.

mf

xi - jo - lat - ga qo'y - ma sang - chi

Tip - ra - ti - kon, tip - ra - ti - kon o' - yin - ga - tush di - kon, di - kon!

tip - ra - ti - kon

Coda
tip - ra - ti - kon

Xijolatga qo'ymasangchi

Naqarot:

Tipratikon,
Tipratikon,
O'yinga tush
Dikon-dikon

Nega hamma yog'ing tikon?
Kiyib olgin qalin chopon.

Qushday uchay, qushday uchay!

Naqarot:

Tipratikon,
Tipratikon,
O'yinga tush
Dikon-dikon

Asta o'zim o'rgataman,
Qo'ling ushlab o'ynataman!

Naqarot:

Tipratikon,
Tipratikon,
O'yinga tush
Dikon-dikon

NISHOLDA

Rauf Tolib she'ri

Dilorom Omonullayeva musiqasi

Allegretto moderato

To'y-da, bay-ram-da. ro-za ay yom-da tan-siq ni-shol-da,

tor-tiq ni-shol-da Muz - qay - moq danzo'r ma-na ya-lab ko'r.

oh - oh ni-shol-da, op-poq ni-shol-da Ma - za - li, tot - li, oh!

Mis-li nov-vot-li - oh!
Oh- oh ni-shol da,
op-poq ni - shol- da!
Muzqay-
moq - dan zo'r oh!
Ma-na, ya-lab ko'r oh!
Oh- oh! ni-shol- da

1. 2.
qay moq ni-shol da!
qay moq ni-shol da!
Oh!

To'yda, bayramda,
Ro'za ayyomda.
Tansiq nisholda,
Tortiq nisholda.

Buncha ham shirin,
Kim bilar sirin?
Oh-ho nisholda,
Qaymoq nisholda.

Muzqaymoqdan zo'r,
Mana, yalab ko'r.
Oh-ho nisholda,
Oppoq nisholda!

Mehmonga yuzim,
Xizmatda o'zim.
Tayyor nisholda,
Mador nisholda.

Naqarot:

Mazali, totli-oh!
Misli novvotli, oh!
Oh-ho nisholda,
Oppoq nisholda!
Muzqaymoqdan zo'r-oh!
Mana, yalab ko'r,-oh!
Oh-ho nisholda,
Qaymoq nisholda!

YANGI YIL ARCHASI

Munira Abdushukurova she'ri

Aleksandr Berlin musiqasi

Allegretto

The musical score consists of four systems of music. The first system shows the piano accompaniment in 2/4 time with a key signature of two sharps. The second system begins with a vocal entry, followed by lyrics in English and Uzbek. The third system continues the piano accompaniment. The fourth system concludes with lyrics in English and Uzbek.

1. Yan - gi yil - da ar - cha - miz
2. Qu - yon - cha - yu tul - ki - cha.

Bay - ra - mo - na kiy - in - gan,
ay - iq - cha ham kir - pi - lar Qor - bo - bo meh - mon ku - tar.
Ar - cha - miz at - ro - si - da

Qo'shiq av - ji - ga min - gan.
Quv - noq kuy - lab dir - kil - lar. Qo'shiq av - ji - ga min - gan.
Quv - noq kuy - lab dir - kil - lar.

Yangi yilda archamiz
 Bayramona kiyingan.
 Qorbobo mehmon kutar,
 Qo'shiq avjiga mingan.
 Lya-lya-lya...

Quyoncha-yu tulkicha,
 Ayiqcha ham kirpiler
 Archamiz atrofida
 Quvnoq kuylab dirkillar.
 Lya-lya-lya...

QADIM TURON

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Allegro moderato

Uch Xu - mo qush par - vo - zixush Ay - tay chin dan, bax - tim

sen - dan. Keng Tur-kis-ton Men-ga ma- kon El qa-dr- don O'z-be-kis ton

Qa- dim Tu - ron.

Parvozi xush.
Osmonimda,
Makonimda.
Keng Turkiston,
Menga makon.
El qadrdon,
Qadim Turon!
Samosi sof,

Chaqnar oftob.
Bag'ri kengdir
Do'sti tengdir.
Aytay chindan,
Baxtim sendan.
Sen doimo
Bor bo'l, Xumo!

ETIKCHAM

Qambar Ota she'ri

Dilorom Omonullayeva musiqasi

Allegretto moderato

Qish - kel - gan - da

da dil____ bar-dam Gur-sil - la - tib ki yay - har da m e - tik - cham, e - tik - cham

p

Loy - ni bos-sam bil - chil - lay - di qor - da - yur sam.

gir - chil_ lay - di e - tik cham_ e - tik - cham

Qish kelganda dadil, bardam

Gursillatib kiyay har dam,
Etikcham.

Loyni bossam bilchillaydi,
Qorda yursam g'irchillaydi,
Etikcham.

E'zozlab zo'r xizmatingni,
Qilay dildan izzatingni,
Etikcham.

Qish chiqqanda moylab qo'yay,
So'ng bir chetga joylab qo'yay,
Etikcham.

INOQ O'YNAYMIZ

G'iyoş Komilov she'ri

Fattoh Nazarov musiqasi

Moderato

Po'm, po'm, po'm,

Po'm, po'm, po'm, men chiq - dim sen - dan,

Ya - rash - may - man hech, _____ bo'l - sin e - sing - da.

Men chiqdim sendan.
Yarashmayman hech,
Bo'lsin esingda.

— Po'm chiqish, o'rtoq,
Eng yomon odat.
Birga o'ynaylik,
Kel, kel, Shahodat.

— Po'm, po'm, po'm,
Po'm chiqdim sendan.

Kechir, o'rtoqjon,
O'tgandir mendan.

— Kel, dugonajon,
Davra quramiz.
Qalin do'st bo'lib,
O'ynab yuramiz.

NEVARALAR QO'SHIG'I

Safar Barnoyev she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Allegretto

Bo g'im bor, gul - zo - rim bor

Bosh bog'-bo - ni bo - bom - lar. Shi - rin so'z - li, be - o - zor Meh - ri - bo - nim

mo-mom- lar. Ne - va - ra, e - va - ra, che - va - ra - - miz.

Biz - lar uy - ning che - va - ri - miz, che - va - ri - miz.

Bog'im bor, gulzorim bor,
Bosh bog'boni bobomlar.
Shirin so'zli, beozor
Mehribonim momomlar.

Naqarot:

Nevara, evara, chevaramiz,
Bizlar uyning chevarimiz.

Ostonamiz muqaddas,
Ahil ota-onamlar.
Oftob nuri tugamas,
Havas qilar odamlar.

Naqarot:

Nevara, evara, chevaramiz,
Bizlar uyning chevarimiz.

Niyatimiz pok, nurli,
Shundan bizlar g'ururli.
Bobo, momolar bilan,
Yashash qanday sururli!

DILOROMNING QO'SHIG'I

Ibrohim Donish she'ri

Dilorom Omonullayeva musiqasi

Chaqgon

Xor
mf

Quv noq xush o - voz. Jaj - ji Di-lo - rom.

Yakka

Qo' shi - g'i dil - ga Baxshe - tar o - rom: A-yam va da - dam

Bo'l - sin - lar bar - dam. Dun - yo tur - gun - cha

1.2. | 3.

Quvnoq xush ovoz,
Jajji Dilorom.
Qo'shig'i dilga
Baxsh etar orom:
Ayam va dadam
Bo'lisinlar bardam,
Dunyo turguncha
Tursinlar har dam

Bog'chamizda u
Barchaga yoqqan,
Yosh qalbi jo'shib
Daryodek oqqan.
Qo'shiq sevmaslar
Yo'qdir olamda,
Men katta bo'lsam
Bo'lay xonanda.

Kuylar Dilorom,
Xushchaqchaq, bardam,
Dunyoda ozod
Bo'lisin har odam.
Qalb ovozimni
Tinglasin olam,
Tinglasin dadam,
Tinglasin olam.

AYIQPOLVONLAR BOG'CHASI

Haydar Muhammad she'ri

To'lqin Toshmatov musiqasi

Andante



p

p

Biz - ning o'r - mon bog' - cha-miz,

p

Da - raxt - zo - ru keng o't - loq.

Qo'l ush - la-shib bar - cha miz,

1. 2.

Qo, - shiq kuy - lay - miz quv - noq.

miz quv - noq.

O, - g'o -

mp - mf

Bizning o'rmon bog'chamiz,
Daraxtzor-u, keng o'tloq.
Qo'l ushlashib barchamiz,
Qo'shiq kuylaymiz quvnoq.

O'g'o'-g'o'-g'o', o'g'o'-g'o',
O'g'o'-g'o'-g'o', o'g'o'-g'o',

Ayni peshin chog'ida,
O'rmonning quchog'ida,
O'tirvolib to'nkaga,
Asal qo'yib o'rtaga,
Maza qilib yalaymiz,
Turib yana o'ynaymiz.

O'g'o'-g'o'-g'o', o'g'o'-g'o',
O'g'o'-g'o'-g'o', o'g'o'-g'o',

BOLALAR VA G'OZLAR

Muhammadali Qo'shmoqov she'ri

Jaloliddin Najmiddinov

O'rtacha tez

mp Bolalar

G'oz - lar, qo' - shiq kuy - lay - siz:

mf

g'oq - g'oq - g'oq Qa - yer - lar - da

mp

o'y - nay - siz? g'oq - g'oq - g'oq

mp G'ozlar:

U - chib - o'y - nab ko'k - lar - da, g'oq g'oq

mf

g'oq Cho' - mi - la - miz ko'l - lar - da,

Hamma:

g'oq g'oq g'oq g'oq g'oq g'oq

Bolalar: Qozlar, qo'shiq kuylaysiz:
G'oq-g'oq-g'oq.
Qayerlarda o'ynaysiz?
G'oq-g'oq-g'oq.

G'ozlar: Uchib o'ynab ko'klarda.
G'oq-g'oq-g'oq,
Cho'milamiz ko'llarda.
G'oq-g'oq-g'oq,

Bolalar: Qozlar, bizga aytingiz,
G'oq-g'oq-g'oq,
Nega oppoq patingiz?
G'oq-g'oq-g'oq,

G'ozlar: Chunki suvlar to'lqini,
G'oq-g'oq-g'oq,
Bizni yuvar har kuni,
G'oq-g'oq-g'oq,

II SINF

PAXTAOY

To'lqin Ilhomov she'ri

Fattoh Nazarov musiqasi

Allegretto

f

Biz - hing ku - mush pax - ta - oy, Da - la - miz - ga sen chi - roy.
To' - lib chiq - ding cha - noq - qa, Ku - lib boq - ding har yoq - qa.

mf

f

Pax - ta, pax - ta, jon pax - ta, yur - tim sen - ga kon pax - ta.

f

Bizning kumush paxtaoy,
Dalamizga sen chiroy.
To'lib chiqding chanoqqa,
Kulib boqding har yoqqa.

Yulduzlardek sochilib,
Lo'ppi-lo'ppi ochilib,
O'lkamga fayz berasan,
Dilni xushnud qilasan.

Xirmoningdan tog' qildik,
Ko'ngillarni chog' qildik.
Sen bizning g'ururimiz,
Hamda mehnat durimiz.

Naqarot:
Paxta, paxta, jon paxta,
Yurtim senga kon paxta.

Naqarot:
Paxta, paxta, jon paxta,
Yurtim senga kon paxta.

Naqarot:
Paxta, paxta, jon paxta,
Yurtim senga kon paxta.

KAKLIGIM

Narimon Orifjonov she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Moderato

Tum-shuq-la-ring

til - la - day Mo - miq pa - ting pil - la - day

Shosh-ma se - ni bir ko' - ray Be - o - zor qush kak - li - gim

Tumshuqlaring tilladay,
Momiq pating pilladay.
Shoshma seni bir ko'ray,
Beozor qush kakligim.

Ketolmaysan uzoqqa,
Seni solmam tuzoqqa.
Kel, mehmon bo'l bu bog'ga,
Bog'imga tush, kakligim!

Senga har xil don beray,
Xohla shirin non beray.
Erkin uch imkon beray,
Kel, go'zal qush, kakligim.

KICHKINTOYMIZ — GIJINGTOYMIZ

Po'lat Mo'min she'ri

Komil Kenjayev musiqasi

Allegretto

rit.

a tempo

Lof qil - may - miz, Chop - qil - lay - miz,

Kich - kin - toy - miz - gi - jing toy - miz,

kich - kin - toy - miz - gi - jin - g toy - miz he - he - hey

Kich - kin - toy - miz gi - jing toy - miz,

kich - kin - toy - miz, gi - jing toy - miz, he - he - he, he - he - hey.
 Do'stimiz ko'p,
 Otimiz — cho'p,
 lof qilmaymiz
 Chopqillaymiz.

Kichkintoymiz —
 Gijingoymiz,
 He-he-he.

Hazillashib,
 «Hazillashib».
 Quvnashamiz,
 Quvlashamiz.

Kichkintoymiz —
 Gijingoymiz,
 He-he-he.

Bizlar har kun,
 O'sib durkun.
 Hech qo'rqlaymiz,
 Kuch to'playmiz!

Kichkintoymiz —
 Gijingoymiz,
 He-he-he.

QUYON

Ilyos Muslim she'ri

Qo'Idosh Mamirov musiqasi

Allegretto

soprano

p

Hoy, qu - yon, op - poq qy- yon,

kel, men bi - lan o'y - na - gin. Chop - qil - lab

staccato

u - yon - by - yon, bog' - cha miz - da quv - na - gin.

Fine

Yot tut - ma- gin o' zing - ni, Bog' - da yay - rab_ da - ming ol!

§

Sen - ga o-chay ko'k-sim - ni kel, qu - yon_ jon, ke - la_ qol!

Hoy, quyon, oppoq quyon,
Kel, men bilan o'ynagin.
Chopqillab u yon- bu yon,
Bog'chamizda quvnagin.

Yot tutmakin o'zingni,
Bog'da yayrab daming ol!
Senga ochay ko'ksimni,
Kel, quyonjon, kela qol!

Senga qurdim jajji uy,
Kirib yotgin bemalol.
Barra o'tlarga xo'p to'y,
O'yining kelmas malol.

Seni sevaman jondan,
Doim yuvib, tarayman.
Yiroq ketmay yoningdan
Parvarishlab qarayman.

OY BO'LAMIZ — TOY BO'LAMIZ

Safar Barnoyev she'ri

Habibullo Rahimov musiqasi

Allegro

Oy - bo' la miz Toy - bo' la miz Sho'x - lik- la - ri

soy - bo' - la - miz. A-mir - Te-mur bo-bo - miz-dek

Bo - tir xo-tam - toy Oy - bo' - la - miz.

Musical score for "Toy Bo-lala-miz" featuring three staves: soprano, alto, and bass. The soprano staff has lyrics "Toy bo-lala-miz" and "Ko-rib quo'-ying boy bo-lala-miz". The alto staff features eighth-note patterns. The bass staff features eighth-note patterns and includes dynamic markings like *f* (fortissimo) and sforzando dots.

Oy bo'lamiz,
Toy bo'lamiz,
Sho'xliklari soy bo'lamiz.
Amir Temur bobomizdek,
Botir, hotamtoy bo'lamiz.

Oy bo'lamiz,
Toy bo'lamiz.
So'zi shirintoy bo'lamiz.
Yigitchalar Alpomish-u,
Qizlar Barchinoy bo'lamiz.
Oy bo'lamiz,
Toy bo'lamiz,
Ko'rib qo'ying, boy bo'lamiz.

YANGI YILIM, YAXSHI YILIM

Po'lat Mo'min she'ri

Doni Zokirov musiqasi

S Quvnoq, shoshilmay

Xush - ke lib san yan - gi yi lim. yil - dan - yil - ga yax - shi yi lim. O _____

Yan - gi - yi-lim a yax - shi - yi lim.

Xush kelibsan,
Yangi yilim.
Yildan yilga
Yaxshi yilim.
Maktabimda,

O'z safimda
Quvnab-quvnab
Oldim bilim.
Bayram-to'ying,
Qo'shiq, kuying.

Naqarot:

Yangi yilim —
Yaxshi yilim.
Yaxshi yilim —
Yangi yilim.

Ochar doim
Bahri-dilim.

BUVIJONIM

Yo'ldosh Suyunov she'ri

Dilorom Omonullayeva musiqasi

Shoshmasdan, quvnoq

Men-gateng -siz meh - ri - bor,
So'z-la - ri - da seh - ri- bor.

Er-tak ay-tib tol - may - di
Er-ka-la-tib xor - may - di

Bu-vi jon-nimbu - vi- jon, — Meh-ri - bo-nimbu - vi- jon —

f

1. 2.

o-na-gi nam-o-na-si sho'x za-bo-nim bu vi - jon jon

Menga tengsiz mehri bor,
So'zlarida sehri bor.
Ertak aytib tolmaydi,
Erkalatib hormaydi.

Naqarot:

Buvijonim, buvijon,
Mehribonim buvijon,
Onaginam onasi —
Sho'xzabonim buvijon.

Ko'rolmasa bir kuni
Uxlay olmaydi tuni.
Ko'ngli sog'inchga to'lib,
Izlar parvona bo'lib.

Naqarot.

Baxtimga omon yuring,
Xushxandon davron suring.
Ko'zingiz namlanmasin,
Dilingiz g'amlanmasin.

SHAFTOLIGA SAVOLIM

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi


 Allegretto




Shaf - to - lim oh shaf - to - lim oh shaf - to - lim oh shaf to - lim
 Qi - zi - lu oq. qi - zi - lu oq. qi - zi - lu oq. shaf to - lim



Ham - ma men - day se - va - di pish - gan - da ma - za bo - lim



§

Musical score for piano and voice. The vocal line consists of eighth-note patterns: 'Shaf - to - lim,' followed by a fermata. The piano accompaniment features eighth-note chords in the right hand and eighth-note bass notes in the left hand.

Coda

Musical score for piano and voice. The vocal line consists of eighth-note patterns: 'Shaf - to - lim,' followed by a fermata. The piano accompaniment features eighth-note chords in the right hand and eighth-note bass notes in the left hand.

Shaftolim, oh, shaftolim,
Qizil-u, oq shaftolim.
Hamma menday sevadi
Pishganda maza bolim,
Shaftolim...

Asta aytib beraqol,
Seni topgan qay olim?
Indamadi shaftolim,
Qiyin ekan savolim,
Shaftoli...

NAVRO'ZIM — SHO'X SOZIM

Habib Rahmat she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Jadal

Qush - lar____ say - rar just - just bo' - lib,
 Nav - ro' - zim o'z so' - zim. Shod o - vo - zim
 Shod o - vo - zim sho'x____ so - zim.

Navro'z keldi kulib-kulib,
 Bog'u dalam gulga to'lib,
 Qushlar sayrar juft-juft bo'lib,

Naqarot:
 Navro'zim o'z so'zim,
 Shod ovozim, sho'x sozim.

Navro'zimni sevar jahon,
 Ona diyor dorilamon,
 Kundan kunga zavqli davron,

Naqarot:
 Navro'zim o'z so'zim,
 Shod ovozim, sho'x sozim.

Yaxshi niyat har ko'ngilda,
 Xurram kunlar kezar elda,
 Takror-takror dilda-tilda:

Naqarot:
 Navro'zim o'z so'zim,
 Shod ovozim, sho'x sozim!

KAPALAK VA KAMALAK

Normurod Narzullayev she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Allegretto

The musical score consists of two staves. The top staff is for the piano, showing bass and treble clef staves with various notes and rests. The bottom staff is for the voice, with lyrics written below the notes. The music is in 2/4 time, with a key signature of two sharps. The vocal part begins with eighth-note patterns, followed by a melodic line with sustained notes and grace notes. The lyrics are: Gul - ga quo' - nib ka - pa - lak, __ qa - no - ti - ni o'y - na - tar. __ Ko'k - da chaq - nab ka - ma - lak, __ yet - ti rang - da - raqs - e - tar __. The piano accompaniment provides harmonic support with chords and rhythmic patterns.

1. 2. *mf*

Gul - ga Ka - pa lak - jon, ka - pa - lak sen ham

men - day sho'x - mi - san? Uy - da yol - g'iz o'l - ti - rib,

Ze - ri - kish - ga yo'q - mi - san? Ka - pa Ze - ri kish - ga yo'q - mi - san?

Gulga qo'nib kapalak,
Qanotini o'ynatar.
Ko'kda chaqnab kamalak,
Yetti rangda raqs etar.

Naqarot:
Kapalakjon, kapalak,
Sen ham menday sho'xmisan?
Uyda yolg'iz o'Itirib,
Zerikishga yo'qmisan?

Bizni imlab chorlaydi,
O'z yoniga kamalak.
Kelgin, birga uchaylik,
Qanot bog'lab, kapalak.

MUZQAYMOQ

Xurshid Qayumov she'ri

Avaz Mansurov musiqasi

§

Muz - dek. muz - dek muz - qay - moq, - sut-day op - poq

soz qay - moq muz - dek, muz - dek, muz - day - moq, sut - day op - poq

soz qay - moq as - ta-gi-na a - vay - lab___ s chay na mas dana -

tay lab,
 Sol-ga nim da og' zim ga
 e -rib-ke-tar bir- zum - da

e -rib-ke -rar bir - zum - da

soz qay - mo - g'im soz - qay - moq.

Muzdek, muzdek muzqamoq,
Sutday oppoq soz qaymoq.
Astagina avaylab,
Chaynamasdan ataylab,
Solganimda og'zimga,
Erib ketar biz zumda.

Muzdek, muzdek muzqaymoq,
Sutday oppoq soz qaymoq.
Muzqaymog'im hozir ham,
Eridi-yu, yo'qoldi.
Lekin totli mazasi,
Mening og'zimda qoldi.

G'ILDIRAGIM

To'xtamurod Bahromov she'ri

Shermat Yormatov musiqasi

S. Allegretto

p Naqarot:

G'il - di - ra - gim, g'il - di - ra -
Naqarot:

gim, tez - roq tez - roq

pil - di - ra - gin.

mf

Ik - ka - la - miz o'y - nab - o'y - nab,

yu - gu - ray - lik yo'l - ka bo'y - lab,

f

Ik - ka - la - miz o'y - nab - o'y - nab,

yu - gu - ray - lik yo'l - ka bo'y - lab.

p

G'il - di - ra - gim,

p

f

Qaytarish uchun.

Tamomlash uchun.

Naqarot:

G'ildiragim, g'ildiragim,
Tezroq-tezroq pildiragin.

Ikkalamiz o'ynab-o'ynab,
Yuguraylik yo'lka bo'ylab.

Naqarot.

Uyga tomon ketaylik tez,
Eson-omon yetaylik tez.

O'yinni men bas qilayin,
Damingni ol, dars qilayin.

Naqarot:

G'ildiragim, g'ildiragim,
Tezroq-tezroq pildiragin.

III SINF

SALOM BERGAN BOLALAR

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

O'ynoqi

A musical score for piano and voice. The piano part is in 2/4 time, A major (two sharps). The vocal line starts with eighth-note patterns followed by quarter notes. The piano accompaniment consists of eighth-note chords in the bass and eighth-note patterns in the treble.

The vocal line continues with eighth-note patterns and quarter notes. The piano accompaniment provides harmonic support with eighth-note chords. The vocal line includes lyrics: "Sa - lom ber - gan bo - la - ning".

The vocal line includes lyrics: "o' - zi o - dob - li" and "Ku - lib tur - gan yuz - la - ri". The piano accompaniment consists of eighth-note chords in the bass and eighth-note patterns in the treble.

go' - yo of - tob - li
 Sa-lom be-ri-sh bu, a' - lo__ a - lo - mat
bilan jiddiy shug'ullanishga qaror qildi. O'sha yili uning musiqa qobiliyatini sezgan kompozitor Nikolay Mironov maslahati bilan Toshkent Davlat konservatoriyaning tayyorlov bo'limiga o'qishga kirdi 1940-yili kompozitorlik mutaxassisligi va cholg'ulashdirish bo'yicha ta'lim olib, 1945-yil konservatoriyanı muvaffaqiyatlì bitirdi. O'sha yili Hamza nomidagi Toshkent Davlat bilim yurtiga musiqa nazariyasidan dars berishga yo'llanma bilan yuborildi. 1959-yili u cholg'ulashdirishdan dars berishga konservatoriya taklif qilindi va 1969-yili dotsent ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi.

1971—1975-yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi xay'atining mas'ul kotibi lavozimida ishladi. Yillar davomida G'.Qodirov pedagogik va jamoatchilik faoliyatining birligida ijod qilib, turli shakl va janrlarda fortepiano uchun pyesalar: «Rondo», «Raqs», «Suita», «Sonata», «Preludiya va opera», violonchel va fortepiano hamda klarnet va fortepiano uchun pyesalar, torli kvartet, simfonik orkestr uchun «Marsh», «Suita», «Simfoniyetta», fortepiano jo'rligida Navoiy g'azallari asosida «G'azal» romansi, «Mard yigit» qo'shig'i kabi asarlarni yaratdi. Bolalar teatrlarida sahna yuzini ko'rgan «Qari chol va bo'ri» nomli spektakliga 1944-yil musiqa bastaladi.

O'ziga xos uslubda ko'proq ovoz uchun simfonik, vokal-simfonik, estrada, xalq cholg'ulari orkestri, ayniqsa, bolalar uchun turli shakl va janrlarda ko'plab asarlar yaratdi. Shuni aytish joizki, u o'z ijodiy faoliyatining hamma davrlarida yakkaxon, xor jamoalari va estrada guruuhlariga go'shiqlar bastalashga ko'proq e'tibor berdi. Uning qo'shiqlari ohangdorligi, dilkashligi, hayotiyligi, sevgi-muhabbatni keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi va davr nafasi yaqqol sezilib turadi.

Masalan: «O'zbekistonim», «O'lkamga», «Yoshlar marshi», «Mirzacho'l», «Oq oltin taronasi», «Do'stlik festivali», «Paxta», lirik estrada qo'shiqlaridan: «Mirzacho'l yor-yori», «Koyimang, oyijon», «Go'zal Toshkent» va boshqalar. Shuningdek, bolalar uchun yaratgan qo'shiqlari nota to'plamlarida chop etildi: «Pillachi qiz» «Maktabjon — oftobjon», «Baxtli avlod», «O'ynab ber», fortepiano uchun pyesalar va «O'zbek raqslari» to'plamlari nashrdan chiqdi. Kompozitor turli cholg'u ansamбли, orkestr, yakkaõon, ansambl va xor uchun «Maktabjon — oftobjon» IV qismli vokal-simfonik suita, «Biz yosh o'qituvchilar» IV qismli kantata, «Oq oltin», «Biz istiqlol egasimiz» V qismli vokal-simfonik suitasi, «Dangasalik — kasallik», «Ota-onalarga», «Bobomlar bog'bon», «Ona qo'llari», «Gunafsha», «Laylak» kabi qator qo'shiqlarni yaratdi.

Kompozitor G'ofur Qodirov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.

Abdurahim MUHAMEDOV
(1923—1980)

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, kompozitor Abdurahim Muhammedov XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U o'ziga xos ovozi bilan musiqa ijodkorligiga 50-yillarda kirib keldi. Uning yaratgan ajoyib lirik, ommabop xor qo'shiqlari, milliy uslubda yozgan simfonik va musiqiy sahna asarlari musiqa madaniyatimizni boyitdi.

Abdurahim Muhammedov 1923-yil 10-dekabrda Toshkent shahrida novvoy oilasida tug'ildi. Tug'ma iste'dod egasi tasviriy san'at va musiqa bilan qiziqdi, qalam va moybo'yoqda har öil rasmar chizdi. Havaskorlik to'garagida mandolina, doira, damli cholg'ulardan alt, bariton chalishni o'rganib, orkestrda ishtirok etdi. 1938-yilda 7-sinfni bitirib, Toshkent sanoat texnikumiga o'qishga kirdi. O'qishni bitirgach, harbiy xizmatga chaqirildi, urushda qatnashib og'ir yarador bo'ldi. 1944-yili Toshkentga qaytdi. Bir yildan so'ng O'zbek Davlat filarmoniyasi qoshidagi O'zbek xalq cholg'ulari orkestriga ishga qabul etildi, keyinchalik O'zbekiston radiosи o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga ishga o'tdi.

1950-yili Toshkent musiqa texnikumining o'zbek xalq cholg'ulari bo'limida o'qidi va musiqa bastalashga quziqdi. Toshkent Davlat konservatoriyaning tayyorlov bo'limida kompozitorlik mutaxassisligidan saboq oldi. «Yoshlik» simfonik poemasi bilan o'qishni bitirdi. Yo'llanma bilan O'zbekiston Madaniyat vazirligi San'at Bosh boshqarmasida inspektor vazifasida ish boshladi. 1956—1957-yillarda Toshkent Davlat xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida musiqa o'qituvchisi, 1958—1960-yillarda Toshkent telestudiyasida musiqa muharriri bo'lib ishladi. 1974—1975-o'quv yilida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutining musiqa fakultetida Musiqa nazariyasidan dars berdi.

A. Muhammedov ijodiy faoliyatining ilk davridan boshlab, zamon ruhiga mos qo'shiqlar yaratishga e'tiborini qaratdi. Muqimiyl nomidagi musiqali drama teatrinda «Jon qizlar», «Gavhari shamchiroq», «Olifta» musiqali komediylarini yaratdi. Yakkaxon va xoruchunko'plab qo'shiqlar bastaladi. Bular: «Jon qizlar», «Yetti qiz», «Shohi so'zana», «Qirg'iz qiziga» «Seni eslayman», «Go'zal Farg'ona», «Jon, O'zbekiston», «Sportchilar qo'shig'i» kabi ommaviy asarlardir. A. Muhammedov bolalar uchun ham jozibali, original qo'shiqlar yaratdi. «Yulduzcha», «Archa qo'shig'i», «Qo'g'irchog'im allayo», «Kapalak», «Tantiq qiz» kabi qo'shiqlari jajji ijrochi va tinglovchilar qalbidan joy olgan. Simfonik orkestr uchun poema va vals, o'zbek xalq cholg'u asboblari va fortepiano uchun o'zbek xalq qo'shiqlarini qayta ishladi. Uning qo'shiqlari kuyining mayinligi va milliy koloriti bilan ajralib turadi.

Abdurahim Muhammedov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvonlari bilan taqdirlangan.



A Π A



To'lqin TOSHMATOV (1934)

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, g'ijjakchi, dotsent, kompozitor To'lqin Toshmatov 200 dan ortiq qo'shiqlar hamda boshqa janr va shakllarda musiqa asarlari yaratib, ijo jamoalarining repertuarlarini boyitib, muxlislarning olqishlariga sazovor bo'lmoqda.

To'lqin Toshmatov 1934-yil 30-dekabrda Toshkent shahrida ishchi oиласида tug'ildi. U bolalik chog'idan o'zbek xalq cholg'u asboblarini chalishga qiziqdi. 1949-yili R.Glier nomidagi maxsus musiqa mакtab-internatida o'qidi. Mazkur maktabni g'ijjak sinfi bo'yicha bitirdi. 1955-yili Toshkent Davlat konservatoriyasida o'zbek xalq cholg'u asboblari fakultetining g'ijjak sinfida Ya.Sabzakovdan tahsil oldi. 1969-yili o'qishni muvaffaqiyatli bitirdi. Konservatoriyada o'qib yurgan paytlarida musiqa bastalashga ham qiziqdi va 1961-yili kompozitorlik fakultetining professori Boris Zeyzman sinfida tahsil olib, 1966-yili o'qishni ikkinchi marotaba bitirdi.

To'lqin Toshmatov mehnat faoliyatini talabalik davridan boshladi. U 1957—1958-yillarda «Bahor» raqs ansamblida, 1958—1978-yillarda O'zteleradio qo'mitasida o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida g'ijjakchi, 1976—1982-yillarda A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutining xalq cholg'ulari kafedrasida katta o'qituvchi, dotsent lavozimida va R.Glier nomidagi maxsus musiqa mакtab-internatida o'qituvchi bo'lib ishladi.

T.Toshmatov turli janr va shakllarda rang-barang asarlar yaratdi. Ular qatoridan: ikkita simfoniya, simfonik uvertura, to'rt qismli vokal-simfonik tarkum, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun: «Bayramona uvertura», «Assalom O'zbekiston», «Yangi Toshkent» kantatasi, «Samarqand» suitasi, rubob va orkestr uchun suita, «Qo'shiq va raqs», nay va orkestr uchun ikki qismli «Nay yallasi», chang va orkestr uchun «Rondo», orkestr uchun «Shohimardon marshi». «Oltin diyor» uverturasi, to'rtta preludiya, 10 ta variatsiya, bolalar uchun «Pyesa», «O'yna, dilbar» asarlari va boshqalar o'rın organ. Kompozitor ijodida qo'shiq janri muhim o'rın tutadi. «To'y yallasi», «Ona Vatanga», «Ishon», «Gullar sochay yo'llingga», «Quyosh o'lkasi», «Toshkentim», «Chaman aylab kel», bolalar uchun «Ayiq polvonlar bog'chasi», «Baxti erkatoy», «Bilim yurtimiz», «Mashinam», «Bahor», «Quloqsiz», «Tut», «À'luchi o'quvchi», «Birchigitdan ming chigit», «Gullola», «Gulshan diyor», «Mening Vatanim» shular jumlasidandir.

Sahna asarlari: «Inbuzarlar» musiqli dramasi, «Ur, to'qmoq», «Muzaffar quyosh farzandi», «G'oyibdan paydo bo'lgan shahar» spektollariga musiqlar bastaladi.

To'lqin Toshmatov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoni va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

A Π A

Komil KENJAYEV
(1939)

Ko'p qirrali kompozitor Komil Kenjayev musiqaning turli janr va shakllarida rang-barang jozibali asarlar yaratdi. Uning simfonik orkestr uchun, turli cholg'u ansambllar uchun, teatr, va ayniqsa, estrada orkestri va vokal-cholg'u ansamblari uchun musiqalari, qo'shiqlari musiqa shinavandalarining olqishlariga sazovor bo'ldi. U pedagoglik va jamoatchilik faoliyati bilan zamonaviy o'zbek professional musiqa san'atiga ulkan hissa qo'shdi.

Komil Kenjayev 1939-yil 21-dekabrda Dushanbe shahrida ziylolar oilasida tug'ildi. Komil bolaligidan musiqaga qiziqdi. 1947-yili o'rta ta'lif maktabiga o'qishga kirdi. 1953-yili bolalar musiqa maktabining fortepiano sinfida saboq ola boshladi va Dushanbe musiqa bilim yurtida o'qishni davom ettirdi. 1960-yili Toshkent Davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirib, professor Boris Zeyzman sinfida tahsil oldi. U turli janr va shakllarda musiqa bastaladi. 1965-yili «Lirik simfoniya» asarini taqdim etib, konservatoriyanı muvaffaqiyatli bitirdi va mustaqil ijodga yo'llanma oldi.

Kompozitor K. Kenjayev mehnat faoliyatini 1957-yilda Dushanbe shahridagi 24-bolalar bog'chasida sozandalikdan boshladi.

1960—1961-yillarda Toshkentdagı maktablarda musiqa o'qituvchisi bo'lib ishladi. Konservatoriyanı bitirgach, Tojikiston Respublikasining «Xo'jand» musiqa bilim yurtida musiqa nazariyasidan dars berdi.

1966—1972-yillari O'zbekiston Madaniyat vazirligining San'at Bosh boshqarmasidagi repertuar kollegiyasida musiqa muharriri lavozimida ishladi. 1972—1973-yillari Mannon Uyg'ur nomidagi Teatr va rassomchilik institutida musiqa nazariyasi fanidan dars berdi. 1973—1984-yillarda R. M. Glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internat direktori lavozimida ishladi. 1984—1986-yillari M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasida rektor lavozimida ishladi. Kompozitorning mustaqil ijodiy faoliyati konservatoriyanı bitirgandan so'ng, 1965—1980-yillarda jo'sh urdi va barakali ijod qildi.

1965-yili simfonik orkestr uchun «Yoshlik» uverturasi, 1966-yili torli cholg'u orkestr uchun «Simfonietta», 1967-yili violonchel va orkestr uchun «Konsert», o'zbek xalq cholg'u asboblari uchun 2 ta suita va «Konserttino», 1969-yili «Olmos otin», «Umirxo'janing nayrangi», 1982-yili «Oq buloq parizodasi» kabi musiqali dramalarni yaratdi. Respublika Davlat Qo'g'irchoq teatrinda «Ovdagi hodisa», «Kenja qiz» asarlarini yozdi. Bolalar xor jamoasi uchun «Kelajak bizniki», «Biz tinchlikni istaymiz», «Kichkintoymiz — gijingtoymiz», «Yerga dovrug' solamiz», «Sen bilan do'stlashdim», «Paxtaoy», «O'zbek qizlari», «Kimki bo'lsa yig'loqi», «Baötiyorlar qo'shig'i», «Bir jahon bolalarmiz», «Ikkisiz, ikki yilsiz», «Beshga teng birinchi», «Öat yozaman do'stimga», «Paötajonim» kabi bolalar uchun 100 ga yaqin qo'shiqlar yaratdi. U 1982—1984-yillari O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining Bolalar musiqa komissiyasi raisi, 1982—1987-yillari taftish komissiyasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Komil Kenjayev O'zbekiston va Estoniya hukumatlarining faxriy yorliqlari va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lchisi nishoni bilan mukofotlangan.





Shermat YORMATOV
(1939)

O'zbekiston xalq artisti, xor dirijori va murabbiy, bastakor Shermat Yormatovning mehnat faoliyati ko'p ovozli bolalar xor ijrochiligini rivojlantirishda alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston teleradiosi huzurida 1967-yilda o'zi tashkil qilgan «Bulbulcha» bolalar jamoasi respublikamiz madaniy hayotida katta rol o'ynab kelmoqda. Sh.Yormatov o'ttiz yildan ortiq davr ichida xor repertuarini boyitishda kompozitor va shoirlar bilan hamkorlik qildi.

Shermat Yormatov 1939-yil 17-oktabrda Farg'ona viloyati Log'onqishlog'idadehqon oilasida tug'ildi. 1947-yilda umumta'lim maktabiga o'qishga bordi va havaskorlar to'garagiga qatnashdi. U tezorada maktabda ajoyib ovozi bilan mashhur bo'lib qoldi, tuman va viloyat festivallari hamda ko'rik-tanlovlarda mukofotlar egasi bo'ldi. Sh.Yormatov maktabni bitirib, 1959-yili Toshkent Madaniyat texnikumiga o'qishga kirdi. 1962-yilda Sh.Yormatov istisno

tariqasida kirish imtihonlarisiz Toshkent Davlat konservatoriyasiga qabul qilindi. U talabalik yillari musiqa bastalash sirlarini o'zlashtirish maqsadida kompozitor Pak Endindan saboq oldi. Konservatoriyaning xor dirijorligi fakultetini tugatib, O'zbekiston teleradiosi huzuridagi Botir Umidjonov rahbarlik qilgan xor jamoasiga dirijor vazifasiga tayinlandi. Mohir xormeystr Sh.Yormatov o'z tajribasini talabalarga tatbiq etish maqsadida o'quv yurtlarida ustoz-murabbiy sifatida xizmat qilib kelmoqda. 1990-yildan buyon A.Qodiriy nomidagi Toshkent Madaniyat institutida dotsent vazifasida ishlab kelmoqda.

U 1996—1999-yillarda Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» Markazi raisining birinchi o'rinnbosari lavozimida, 2000—2002-yillarda Yu.Rajabiy nomidagi Toshkent musiqa-pedagogika bilim yurti direktori lavozimida ham ishladi. 1961-yili Toshkentdagi 99-maktab qoshida respublikada ilk bor o'zbek bolalar ñor jamoasini yaratdi. Bu ñor jamoasi tobora rivojlanib, Respublika bolalar ijodiy markazining «Boychechak» ñor studiyasiga aylandi. 1970-yili Davlatimizning respublikada qo'shiq va ñor san'atini rivojlantirish haqidagi qaroriga asoslanib, O'zbekiston Teleradiokompaniyasi qoshida namunali bolalar ñor jamoasi tashkil qilindi. Bu jamoaga Shermat Yormatov badiiy rahbar va bosh dirijor qilib tayinlandi. Keyinchalik bu ñor jamoasini Sh.Yormatov «Bulbulcha» ashula va raqs ansambliga aylantirdi. Hozirgi kunda bu ansamblning shuhrati butun olamga mashhur. Unda 700 dan ziyod turli yoshdagи bolalar ishtirok etadi. Kompozitor Sh.Yormatovning ijodida qo'shiq janri ustivor turadi. Jumladan: «G'ildiragim» «Islom bobo», «Oymomajon rom bo'ldi», «Bu go'zal o'lka», «Dadamlarga o'xshasam», «Qor», «Sumalak», «Oy Vatanim» kabi qo'shiqlar, «Maysa», «Boychechak», «Qari chumchuq chaqimchi», «Yalpiz», «Dorboz», «Keldi Navro'z» kabi o'zbek xalq qo'shiqlarini bolalar xori uchun qayta ishladi. O'smirlar uchun «Assalom hayot» nomli V qismli kantata, bolalar xalq termalari asosida vokal-xoreografik suitesini yaratdi. Uning qo'shiqlari turli nota to'plamlari va «Musiqo» darsliklariga kiritilgan. Sh.Yormatov hammulliflikda umumta'lim maktablari uchun musiqa darsliklarini yaratdi va nashrdan chiqardi.

Shermat Yormatov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, «Sog'lom avlod uchun» ordeni, O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

Rustam ABDULLAYEV
(1947)

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, kompozitor Rustam Abdullayev zamonaviy o'zbek musiqa san'atining zabardast ijodkorlaridan biridir. Sharq va G'arb mumtoz musiqiy san'atlarining an'analari izidan borib, turli janr va shakkarda musiqiy asar yaratib, Vatanimiz musiqiy madaniyatining rivojlanish jarayoniga samarali hissa qo'shib kelmoqda.

Rustam Abdullayev 1947-yil 12-fevralda Xorazm viloyati Xiva shahrida ziyolilar oilasida tug'ildi. Otasi Abdulla Otajonov va onasi Gavhar Matyoqubovalar farzandlarining musiqaga qiziqishini sezib, musiqa maktabiga olib borishdi. Rustam Abdullayev o'rta ta'lif maktabida o'qib yurgan yillari, musiqa maktabiga qatnab, rubob chalishni o'rgandi. 1962-yil Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kirdi. O'quv yurtida Rustam musiqiy qobiliyati, mehnatkashligi bilan boshqalardan ajralib turar edi.

O'quv yurtining nazariy bo'limida Rumil Vildanovdan kompozitorlik mutaxassisligidan saboq oldi. 1965-yili Toshkent Davlat konservatoriyasiga o'qishga kirib, taniqli kompozitorlar Rumil Vildanov va Boris Giyenkadan tahsil olib, 1972-yili fortepiano uchun konsert bilan muvaffaqiyatlil bitirdi.

R. Abdullayev konservatoriyada o'qib yurgan yillaridayoq iqtidorli kompozitor va mohir pioninochi sifatida tanila boshladi. Qozog'istonda o'tgan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» kunlarida qatnashib, o'zining fortepiano konsertini simfonik orkestr bilan ijro etdi va muvaffaqiyat qozondi. Shuningdek, Gruziyada, Moskva shahrida o'tkazilgan yirik anjumanlarda «Xirosima faryodi» va «Hijron» nomli asarlari bilan ishtirok etib, laureat unvoniga sazovor bo'ldi. R. Abdullayev 1974-yil Toshkent Davlat konservatoriysi asissentura-stajirovka o'qishiga kirdi. Professor Boris Zeydmandan saboq oldi. 1976-yildan boshlab, Toshkent Davlat konservatoriysida bastakorlik kafedrasida, 1995-yildan buyon O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi lavozimlarida ishlab kelmoqda. Rustam Abdullayev turli janrlarda qator musiqiy asarlar yaratdi. Bular orasida uchta yirik asari sahna yuzini ko'rib, shinavandalar olqishiga sazovor bo'ldi. Jumladan: «Sadoqat» nomli operasi, «Shoshma quyosh» nomli balet oratoryasi va «Xiva ordeni» nomli operasi. Kompozitor R. Abdullayevning ijodida simfonik, vokal-simfonik, fortepiano musiqalari asosiy o'rinn egallaydi. 3 ta simfonik poema, fortepiano uchun 10 ga yaqin asarlar shular jumlasidandir.

U butun dunyo bo'yicha o'tkazilgan «Yosh kompozitorlar»ning ko'rik-tanlovlari va festivallarida ishtirok etib, ko'p marotaba I mukofot va laureatlik unvoniga sazovor bo'ldi.

20 ga yaqin davlatlarda asarlari ijro etilib, Respublika va Xalqaro ko'rik-tanlovlar laureati bo'lib, olqishlarga sazovor bo'lmoqda. O'zi ham kompozitor va ijrochi sifatida ishtirok etib, musiqa muxlislari e'tiborini qozonmoqda.

So'nngi yillar ichida R. Abdullayev romans va qo'shiq janrlarida barakali ijod qilib kelmoqda. Uning qo'shiqlari xalq hofizlari, dutorchilar ansambl, estrada qo'shiqchilari ijrosida ommalashib ketmoqda. Bular: «To'ylaring muborak», «Turon turnalari», «Go'zal Vatanim», «Piyola» kabi asarlardir. O'zbekiston Teleradiokompaniyasi qoshidagi «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi uchun mazmundor, jozibali qo'shiqlar yaratib kelmoqda. Jumladan: «Olam gulgato'laversin», «Charxpalak», «Parvozdagi qushchalar», «Mustaqillik lolalarimiz», «Do'stlik qo'shig'i», «Shodlik va tinchlik», «Qoshiq-qoshiq», «Gullola» kabi juda ko'p qo'shiqlarni yaratdi.

Kompozitor Rustam Abdullayev O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi faöriy unvoniga va Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.





Habibulla RAHIMOV
(1946)

Zamonaviy o'zbek professional musiqa san'atining namoyandalaridan biri Habibulla Rahimov turli mavzu, shakl va janrlarda xilma-xil, barkamol asarlar yaratib, musiqa shinavandalarini xushnud etib kelmoqda.

Habibulla Rahimov 1946-yil 31-oktabrda Tojikiston Respublikasi Xo'jand viloyatining Nav tumanida taniqli sozanda G'aybullo Rahimov oilasida tug'ildi. To'ng'ich farzand bo'lgan Habibulla ota kasbini bolaligidan egallay boshladi. Sadirxon Hofiz nomidagi Xo'jand Davlat musiqa bilim yurtida tahsil oldi. G'ijjak chalish bilan bir qatorda, unda kuy bastalashga ishtiyooq tug'iladi. Musiqa bilim yurtini bitirgach ustozlarining maslahatiga binoan, 1964-yili M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriysi kompozitorlik fakultetining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirib, Boris Giyenko sinfida tahsil oladi. 1974-yili Davlat imtihoniga

shoir To'lqin so'ziga yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr uchun «Osvensim» nomli oratoriyasini taqdim etdi. 1974—1976-yillarda konservatoriya da asissentura-stajorlikda professor Boris Zeyzman sinfida kasb malakasini oshirdi.

H. Rahimov konservatoriya da o'qish bilan bir paytda 1969—1974-yillarda Respublika damli cholg'ular maktab-internatida musiqa nazariyasi fanidan o'qituvchilik qildi. 1977—1989-yillarda A. Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida ishladi. «Partitura o'qish va cholg'ulashdirish» fanidan dars berdi. 1989-yildan boshlab O'zbekiston Davlat konservatoriyasida ushbu fan bo'yicha talabalarga saboq berib kelmoqda. H. Rahimov yaratgan simfonik va vokal-simfonik asarlar O'zbekiston milliy simfonik orkestri repertuarini yanada boyitdi. Simfonik orkestr uchun: «Simfonik poema», Ibn Sino she'rlariga «Beshta ruboiy», ovoz va simfonik orkestr uchun Uvaysiy g'azallariga «Beshta» romans, «Sayil bayram» uverturasi, «Segoh» simfoniyasi, «Rost», «Raqs» va «Tong» kuylari, ud va kamer orkestri uchun «Fantaziya», dutor va kamer orkestr uchun «Qo'shtor», rubob va orkestr uchun «Arabcha poema»larni yaratdi. H. Rahimov o'zbek cholgu orkestri uchun ham bir qator asarlar yaratdi. Jumladan: «Qo'shiq va raqs», «Armug'on», «Naqsh va tarona», «Taron va ufor» pyesalari, «Muborakbod» uverturasi, «Yoshlik bayrami» konsertinosi, «Noma'lum askar xotirasi» poemasi, «Yaponcha raqs» va Navoiy g'azallariga «Poema» kabi qator musiqiy asarlarni yaratdi. Kompozitor damli cholg'ular uchun ham 10 dan ziyod asarlarni yozdi. 1975-yili Uyg'un bilan hamkorlikda «Parvona» nomli ilk musiqali dramasini yaratdi. «Kelin tanlov», «Mushkul savdo» musiqali komediyalari 1997-yili sahna yuzini ko'rdi. «Ona qalbi», «Alpomish va Barchinoy» operalarini yaratdi. H. Rahimov ijodida qo'shiq va romanslar alohida o'rinn tutadi. Jumladan: «Sog'inganda» «Uzoqda», «Bo'ron», «Mening sevgim», «Yulduzlar» kabi romanslar. Fortepiano uchun 18 ta xalq kuylarini moslashtirdi, 16 ta asardan iborat «Albom», g'ijjak va fortepiano uchun «Ballada» va sonatalar yaratdi. H. Rahimov respublikamizda o'tkazilgan eng yaxshi qo'shiq tanlovining ko'p yillar sovrindori. Kompozitor bolalar uchun «Do'mboqchalar qo'shig'i», «Oy bo'lamic — toy bo'lamic», «Buõoro», «Samarqand» «Sho'x bolaman», «Muchal qo'shig'i», «Men g'unchaman», «Tilla qo'ng'iz» va «Bolalar» kabi qo'shiqlarga kuy bastaladi.

Habibulla Rahimov «Shuhrat» medali bilan mukofotlandi, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi unvoniga sazovor bo'ldi.

Nadim NORXO'JAYEV
(1947)

O'zbekistonda xizmat ko'ssatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston Davlat konservatoriysi professori, kompozitor Nadim Norxo'jayev o'zining jozibali musiqiy asarlari, ayniqsa, estrada va bolalar uchun yaratgan qo'shiqlari bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo'ldi.

Nadim Norxo'jayev 1947-yil 24-dekabrda Toshkent shahrida ziylolar oilasida tug'ildi. Nadimning ota-onalari o'g'llarining musiqaga qiziqishini sezib, umumta'lim maktabining 5-sinfidan R.Glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internatiga berdilar va u bu yerda tanbur chalishni o'rgana boshladi. Nadimning musiqa nazariyasi va bastakorlikka qiziqishini inobatga olgan holda, uni 1963-yili Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga o'tkazishadi. Mashhur kompozitor Rumil Vildanovdan musiqa sirlarini o'rgandi. 1967-yili simfonik orkestr uchun bastalagan «Suita»si bilan a'llo baholarga o'qishni bitirdi. O'sha yili Toshkent Davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirdi. Bu oliy dargohda kompozitorlik bo'yicha Georgiy Musheldan, cholg'ulashtirishdan Aleksandr Kozlovskiydan saboq oldi N. Norxo'jayev konservatoriyanı imtiyozli diplom bilan bitirib, Bekobod musiqa bilim yurtiga ishga yo'llanma oldi. Harbiy xizmatni o'tab yurgan davrda vokal-cholg'u estrada ansamblini tashkil etib, konsertlar bera boshladi. U o'z faoliyatida qo'shiq janriga ko'proq ahamiyat berdi. 1968—1972-yillarda musiqa maktabida, 1972—1975-yillari Bekobod musiqa bilim yurtida, musiqa maktabida o'qituvchi va bo'lim mudiri bo'lib ishladi. 1975—1976-yillarda «Melodiya» firmasining ovoz yozish studiyasida bosh muharrir vazifasida ishladi. A. Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent bo'lib, ayni paytda Yu.Rajabiy nomidagi Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qituvchi, 1998-yildan buyon Toshkent Davlat konservatoriysi estrada ijrochilik kafedrasи mudiri, 2003-yildan professor lavozimida ishlab kelmoqda.

N. Norxo'jayev fortepiano uchun 3 ta pyesa, 4 ta preludiya, 2 ta variatsiya, sonatina, «Luqmalar» nomli miniaturalar turkumi, so'zsiz qo'shiq, fortepiano uchun 2 ta sonata, skripka va fortepiano uchun pyesa, torli kvartet, fortepiano va simfonik orkestri uchun «Konsertino», IV qismli simfonik suita, I qismli simfoniya va ko'pgina qo'shiqlar yaratdi.

N. Norxo'jayev ijodida qo'shiq ustuvor ahamiyat kasb etadi. U zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda 100 dan ortiq estrada va bog'cha bolalari hamda maktab o'quvchilariga atab qo'shiqlar yaratdi. Yosh bastakorning bolalar uchun 1975-yilda yozgan «Hakkalar» ilk estrada qo'shig'i «Paxtaoy» nomli vokal cholg'u ansamblı ijrosida mashhur bo'lib ketdi. Jumladan, «Yaxshi bola», «Dangasa», «Eh, orzular», «Antiqa musobaqa», «Diyor madhi», «Balig'im», «Salom bergen bolalar», «Sayyoraxon», «Chamandagi gullarmiz», «Boboxo'roz», «Dono bola» kabi qo'shiqlari «Bulbulcha» bolalar xoriijerosida ommalashib ketgan. Bolalar xori uchun «Hafta» kantatasi, «Daraxtlar suhbati» oor suitasi, o'zbek xalq qo'shiqlarini xor uchun qayta ishladi. «Osmondag'i oy», «Chori chambar», «Kavushim», «Chuchvara qaynaydi» qo'shiqlari shular jumlasidan.

Nadim Norxo'jayev O'zbekistondaxizmatko'ssatgan madaniyatxodimifaxriy unvoni bilantaqdirlangan. Respublika «Ofarin — 2000» ko'rik-tanlovi sovrindori, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi qo'shiq sho'basi raisi, respublikamizda o'tkazilayotgan turli ko'rik-tanlovlarda jyuri hay'atlarining faol ishtirokchisi.





Avaz MANSUROV
(1957)

O'zbekiston Yoshlar mukofoti sovrindori, Toshkent Davlat konservatoriysi kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedrası professorı, kompozitor Avaz Mansurov o'zining uslubibilan alohida ajralib turadi. Kompozitor turli janrlarda, ayniqsa, qo'shiqchilikda barakali ijod qilib kelmoqda.

Avaz Mansurov 1957-yil 2-noyabrdada Qo'qon shahrida tug'ildi. Avazning bolalik yillari teatr sahnasida hamda mashhur xonanda va sozandalarning musiqa va she'riyat davralarida o'tdi. Dastlab musiqa məktəbida, so'ngra Qo'qondagi musiqa bilim yurtining «Musiqa nazariyası» bo'lumida a'lō baholar bilan o'qidi.

1982-yilda M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasining «kompozitsiya va cholg'lashtirish» kafedrasini Boris Zeyzman sinfida, 1986-yili asisstanturani professor

Feliks Yanov-Yanovskiy rahbarligida bitirdi.

Kompozitor A. Mansurovish faoliyatini 1973-yilda Farg'onaviyati musiqali drama teatrining orkestrida sozandalikdan boshladi. 1981—1983-yillarda o'qish bilan bir qatorda Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi bolalar musiqa məktəbida ishladi. 1982-yili konservatoriyada o'qishni bitirgach, kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedrasida pedagog lavozimida asisstanturada qoldirildi. Mazkur kafedrada katta o'qituvchi, dotsent, «Sharq fakulteti» dekani, «Kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedra»si mudiri va 2000-yildan boshlab konservatoriya o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimida ishlamoqda.

A. Mansurov birinchi ijodiy qalamini fortepiano uchun «Qizcha va tulkı», «Qo'rquinchli tush» ertaklariga musiqa bastalashdan boshladi. Skripkachilar ansamblı uchun «So'zsiz qo'shiq», fortepiano uchun «Tokkata-preludiya» va bir necha qo'shiqlar yaratdi. A. Mansurovning ijodiy faoliyatida kamer vokal janrlar ustunlik qiladi. Uning ovoz skripka va fortepiano uchun yozgan «Muhabbat» lirik turkumi, 10 dan ortiq romanslari musiqiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi. Ayniqsa, bolalar qo'shiqlarini yaratishda A. Mansurov yuqori natijalarga erishdi. O'zteleradiokompaniyasi qoshidagi «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi ijrosida yangragan «Quyosh bilan suhbat», «Kel, baxt kuyin kuylaylik», «Oq kabutar parvozi», «Hur respublikam», «Muzqaymoq», «Tomchilar qo'shig'i», «Dakan öo'roz», «Quvnoq bolalar», «Qo'shig'im, jon qo'shig'im», «O'zbekiston onajon» kabi 100 dan ortiq qo'shiqlari mashhur bo'lib, kompozitorga shuhrat keltirdi. Kompozitor estrada janrida ham unumli ijod qilib kelmoqda. «Navro'z», «Chimyon», «Chaman-chamanim», «Talabalar qo'shig'i», «Oydin yo'l» kabi estrada qo'shiqlari shular jumlasidandir. Kompozitor A. Mansurovning ijodiy faoliyatida teatr sahna asarlari musiqali bastalash ham ustivor turadi. Jumladan: «Hayvonlar sultonı», «Sharq afsonasi», «Qo'ng'iroqli yolg'onchi», «Xo'ja Nasriddinning 41-pashshasi», «Ur, to'qmoq» musiqali komediyalarni yaratdi.

Simfonik orkestr uchun ikkita simfoniya, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun uvertura, damli cholg'ular orkestri uchun «Karnay sadosi» va «Askarlar marshi», «Sug'diyona», kamer cholg'u asarlari, fortepiano uchun «Hayvonot bog'ida sayr» kabi musiqali asarlarni yaratdi.

Avaz Mansurov O'zbekiston Yoshlar mukofoti sovrindori, O'zbekiston Respublikasi faxriy yorlig'i, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirliklarining faöriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Dilorom OMONULLAYEVA
(1959)

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, kompozitor Dilorom Omonullayeva O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga estrada qo'shiqlari va boshqa asarlari bilan kirib keldi. U o'zining ijodiy faoliyati bilan respublika musiqa san'atining rivojlanishiga samarali hissa qo'shib kelmoqda.

Dilorom Omonullayeva 1959-yil 1-oktabrda Toshkentda musiqachilar oilasida tug'ildi. Diloromning qalbiga ona allalari bilan birga musiqiy mo'jizalar kirib keldi. Qobiliyatli qizcha V.Uspenskiy nomidagi maxsusus musiqa matabida fortepiano sinfi bo'yicha o'qiy boshladi. 12 yoshida esa professor Boris Zeyzman sinfida kompozitsiyadan ham qo'shimcha saboq oldi. Ilk asarlari orasida torli orkestr, urma cholg'ular va fortepiano uchun 5 qismli suitasini milliy simfonik orkestri ijro etdi va muvaffaqiyat qozondi.



Dilorom Omonullayeva 1978-yili maktabni muvaffaqiyatli bitirib, Toshkent Davlat konservatoriyaning kompozitorlik fakultetida professor Boris Zeyzman sinfida o'qishni davom ettirdi, kompozitor Rumil Vildanov sinfida o'qishni imtiyozli diplom bilan bitirdi. Yosh mutaxassis talabalik davridayoq Hamza xotirasiga bag'ishlangan fortepiano uchun «Sonata I», «Samarqand manzaralari» V qismi suitasi, «Sonata II», bir necha romanslar va III qismli kvartet, fortepiano va fleyta uchun «Pomir eskizlari» polifonik pyesalarni yaratdi.

D.Omonullayeva 1984—1986-yillarda yo'llanma bilan Guliston san'at bilim yurtida musiqa fanlaridan dars bera boshladi. 1986—1990-yillarda D.Omonullayeva konservatoriyada professor To'lqin Qurbonov sinfida assisstenturani bitirdi, so'ngra 1990—1993-yillarda konservatoriyada «Bastakorlikva cholg'ulashtirish kafedrasi»da o'qituvchi, 1993-yildan V.Uspenskiy nomidagi maxsusus musiqa matabida o'qituvchi bo'lib ishladi.

D.Omonullayevaning ijodiy faoliyatida zamonaviy estrada qo'shiqchilik san'ati ustuvor turadi. U zamondosh shoirlardan U.Azimov, E.Obidov, N.Narzullayev, Z.Mo'minova, X.Xudoyberdiyeva va boshqalarning she'rlariga, turli mavzularda 100 dan ortiq qo'shiqlar yaratdi. Ular «Siz yoqqansiz menga hamisha», «Yomg'ir yog'di» «Saraton», «Sen qaydasan», «Ikki daraxt», «Azizim», «Yig'lama», «Yolg'on dunyo» va boshqalar. Kompozitor turli yoshdagi bolalar uchun ham ko'p qo'shiqlar bastaladi. Uning qo'shiqlari teleradio to'lqinlarida doimo yangrab kelmoqda. 1984-yil shoira Nodira g'azallariga 2 ta romans yozdi.

D.Omonullayeva musiqa san'atining boshqa janr va shakllarida ham asarlar yaratdi: fortepiano va simfonik orkestr uchun konsert, xor va orkestr uchun suita, kamer cholg'ular uchun musiqiy asarlar, jumladan, «Baxtimiz taronasi», «Istiqlol madhiyasi», fortepiano uchun sonata, fortepiano uchun «Bolalar albomi», 5 ta kichik pyesa, «Kichkintoylar uchun musiqa» to'plamiga 20 ta qo'shiq va 30 ta raqs kuylari kiritilgan, «Topishmoq aytishuv», «Topishmoq qo'shiqlar», «Alifbe qo'shiqlari» va boshqalarni Teleradiokompaniyaning «Bulbulcha» xor jamoasi simfonik estrada jo'rlig'ida ijro etib kelmoqda. Shuningdek, 1997-yil Usmon Azim she'riga «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali madhiyasini yaratdi. O'zbek Milliy teatri ochilishi munosabati bilan «Milliy teatr madhiyasi» va vatanparvarlik mavzusida 30 ga yaqin qo'shiqlar yaratgan.

Dilorom Omonullayeva «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni, «Ofarin» mukofoti sohibi, «O'zbekiston — Vatanim manim» va boshqa tanlovlardori.



Farhod ALIMOV
(1947)

Kompozitor Farhod Alimov hozirgi zamon o'zbek musiqa san'atining zabardast vakillaridan biri. U yorqin ijodiy faoliyati bilan rang-barang, jo'shqin va jozibali qo'shiqlari, o'zbek xalq cholg'u orkestriga va teatr uchun yozgan asarlari bilan shinavandalari qalbidan joy olib, zamonaviy milliy musiqa san'ati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.

Farhod Alimov 1947-yil 23-oktabrda Toshkentda muhandis oilasida tug'ildi. 1954-yili mактабга bordi. Farhodning musiqa qiziqishini ko'рган ota-onasi uni 1959-yil R.Glier nomidagi respublika musiqa mактаб-internatiga o'tkazdilar. Bu yerda u g'ijjak chalishni taniqli o'qituvchi O.Xolmuhamedovdan o'rgandi. 1965-yil mактабни imtiyozli tugatib, Toshkent Davlat konservatoriyasining o'zbekxalq cholg'ulari fakultetiga imtihonsiz qabul qilindi. Konservatoriyanı 1970-yilda g'ijjak bo'yicha bitirib,

O'zbekiston radiosи qoshidagi O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrida sozanda bo'lub ishladi. Orkestrda ishlab yurgan paytalarida musiqa bastalashga intilib, qo'shiq va kuylar yoza boshladi. Kompozitorlik malakasiga ega bo'lish uchun 1972-yili konservatoriyaning tayyorlov kurslarida, so'ngra asosiy bosqichda Boris Giyenkoda ta'lim oldi. 1975-yildan boshlab A.Qodiriy nomidagi Madaniyat institutida katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida ishladi. 1995-yildan boshlab Toshkent Davlat konservatoriyasida orkestr dirijorligi kafedrasida dotsent lavozimida ishlab kelmoqda.

F.Alimov musiqa san'atining deyarli barcha janrlarida samarali ijod qilmoqda. Uning bastalagan asarlari simfoniya, ovoz va simfonik orkestr uchun «Maftuningman Toshkent» vokal-simfonik poemasi, «Ona sayyorani asrang» kantatasi, «Ibn Sino hayotidan lavhalar» simfonik poemasi, «Shodiyona», «Tabriknoma», «To'yona» uverturalari, jo'rsiz xor uchun Navoiy ruboilalariga «Muhabbatnoma turkumi», Bobur ruboilalariga «Dil sadosi» turkumi milliy ruhi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. 1990-yillarda «Muhabbatnoma», «Baxshida» nomli baletlarni, quyidagi musiqali dramalarni yaratdi: «Yusuf va Zulayxo», «Fotima va Zuhra», «Nadirabegim», «Devona», «Soyibxo'ja operasi», «Super qaynona», «Checha», «Super qaynona — 2», «Na falakman, na malak», «Muhabbat tuyg'usi», «Oq kabutarlar» musiqali komediyalari Muqimiy nomidagi musiqali teatrda sahna yuzini ko'rgan.

F.Alimov «Mehrobdan chayon» filmiga, «Samarqand obidalari va muzeylari», «Vatan bizniki», «San'at mактabi» hujjatlari filmlariga musiqa bastalagan.

Shuningdek, «Navro'z», «Sharq taronalari», Amir Temur va Ulug'bek yubileylariga bag'ishlangan anjumanlarda o'z asarlari bilan faol qatnashdi. Uning asarlari Germaniya, Ispaniya, Misr, Fransiya mamlakatlarida ijro etilib, olqish va hurmatga sazovor bo'ldi.

Kompozitor bolalar uchun «Sariq jo'jalarim», «Oyijonim allasi», «Yozfasli», «Yashasin do'stlik», «Chaqgon bola», «Oppoq qayin», «Ahillik — do'stlik» kabi juda ko'p qo'shiqlarga kuy bastaladi.

Qo'Idosh MAMIROV
(1941)

Pedagogika fanlari nomzodi, xor dirijori, bastakor Qo'Idosh Mamirov, milliy bastakorlik an'analarini davom ettirib, zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda jozibali qo'shiqlar yaratmoqda.

Qo'Idosh Mamirov 1941-yil 23-martda Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani Suvchi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. Ota-onasi Qo'Idoshning musiqaga qiziqishini sezib, qishloqdag'i naychi yigit Rahmatjon Abdurayimovga shogirdlikka berishdi. 1958-yili u Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining xor dirijorligi bo'limiga qabul qilindi. 1962-yil Toshkent Davlat konservatoriyasi xor dirijorligi fakultetiga o'qishga kirdi. 1964—1968-yillarda Qo'Idosh Mamirov Toshkent harbiy garnizoni qoshidagi Ikromjon Bo'ronov rahbarlik qilgan o'zbek ashula va raqs ansamblida naychi bo'lib harbiy xizmatni ado etdi.

Bastakor va xor dirijori Qo'Idosh Mamirov mehnat faoliyatini talabalik davridan boshlab, umumta'lim maktablarida musiqadan dars berdi. 1964-yili Toshkent o'quvchilar saroyida o'zbek xalq cholg'u ansambliga, 1968—1970-yillarda A. Gagarin nomidagi O'quvchilar saroyidagi o'zbek xalq cholg'ulari ansambliga rahbarlik qildi. 1970-yildan buyon Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universitetining musiqa fakultetida xor dirijorligi kafedrasini mudiridan dekan, professorlikkacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1987-yili Moskvada «Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'quvchilarning aõloqiy hislarini tarbiyalash» mavzusida yozgan dissertatsiyasini yoqladi va pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

Qo'Idosh Mamirov Navoiy g'azallari bilan kuylanadigan 40 ta ashulani notaga yozdi. 80 ta xalq qo'shig'i va maqom shu'balarini o'z ichiga olgan «O'zbek xalq qo'shiqchiligi majmuasi»ni tuzdi. O'z asarlaridan qo'llanmalar tayyorladi. «Quyosh yurtim», «Ohanglarda hayot nafasi», «Ona allasi» kabi to'plamlarni chop etdi. Yakka xonanda va vokal ansambl bilan orkestr jo'rligida quyidagi asarlarni yaratdi: «Yo'lim boshlar», «Sevinch yoshlari», «Go'zalim madhiyasi», vokal-cholg'u ansambl ijrosida «Bahor», «Nigohimni uzolmayman», «Qo'shiqqa navbat», «Ona yurt qo'shig'i» asarlarini yaratdi. Ular asosida xor akapella (jo'rsiz xor) uchun «Lahza-lahza», «Miltiraydi bir mitti yulduz», «O'zbekiston — ona yurt», «O'zbekiston taronasi» asarlari ko'rik-tanlovlarda sovrinli o'rnlarni egalladi. Xor va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun «Istiqlol», «Yor qani», «Go'zal Toshkent qizlari», «Dugona kelibdur», yakka xonanda va orkestr uchun «Bahor sarvinoz», «Anhor labida» va boshqalar. Dramaturg N. Qurbonov bilan «O, meni qora ko'zlarim» nomli musiqali drama va kinorejissor Zulfiqor Musoqov bilan hamkorlikda «Qaldirg'och» kinofilmiga musiqa bastaladi. U 100 dan ortiq kattalar va bolalar uchun qo'shiqlar yaratdi. Bulardan tashqari 6 ta she'riy poema, 200 ga yaqin she'rlar, to'rtliklar, «Payg'ambarnoma» nomli she'riy roman muallifi. Q. Mamirov talabalar va maktab o'quvchilari nafosatini aõloqiy jihatdan tarbiyalash muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqda. Ilmiy izlanishlar samarasini sifatida 20 ga yaqin maqola, dastur, tavsiya, qo'llanmalar yaratishga erishdi. Besh qismili «Ör dirijorligi» örestomatiyasini yozdi. Turli ilmiy-amaliy va ilmiy-uslubiy anjumanlarda o'z ma'ruzalari bilan qatnashib kelmoqda.





Rahmatjon TURSUNOV
(1939)

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, pedagogika fanlari nomzodi, A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti xalq musiqasi kafedrasи professori, bastakor Rahmatjon Tursunov, ustozlari ishlarini davom ettirib, o'zbek qo'shiqchilik san'aiga barakali hissa qo'shib kelmoqda.

Rahmatjon Tursunov 1939-yil 5-martda Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida dehqon oilasida tug'ildi. 1946-yildan umumta'lim məktəbida o'qidi. Musiqaga bolaligidanoq paydo bo'lgan ishtiyoyq, Rahmatjoni məktəb qoshidagi havaskorlik to'garagiga yetakladi. 1956-yili Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga, dirijorlik bo'limiga o'qishga kirdi. 1960-yili Toshkent Davlat konservatoriyasining xor dirijorligi fakultetiga o'qishga kirib, 1968-yili tugatdi.

R.Tursunov 1968—1970-yillarda Qarshi Pedagogika institutining musiqa kafedrasida, 1970—1974-yillarda esa Toshkent Madaniyat texnikumida, 1974-yildan buyon Toshkent Davlat Madaniyat instituti xor dirijorligi kafedrasida katta o'qituvchi, dotsent, professor vazifalarida ishlab kelmoqda. R.Tursunov «Havaskorlik ashula va raqs ansamblarining rivojlanishi va pedagogik shart-sharoitlari» mavzusida dissertatsiya yoqlab, pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasida ega bo'ldi. R.Tursunov 1978—1985-yillar professor Boris Giyenko sinfida kompozitsiya amaliyotidan maslahatlar olib, ijod bilan shug'ullandi. Shu yillari quyidagi musiqa asarlarini yaratdi: «Cho'Idan kelgan sabolar» suitasi, «Cho'l gullari» xor uchun akapella, «Yodimda sen» pyesasi, «Chang taronasi» kuyi, jo'rovoz uchun «Mexanizatorlar» dueti, ashulachilar ansambl uchun «Paxtam menin baxtimdir», «Olqish aytar zamona» qo'shiqlari va boshqalar. R.Tursunov ijodida qo'shiqchilik ustuvor turadi. U turli mavzularda mumtoz va zamonaviy shoirlar she'rlariga 100 dan ortiq qo'shiq, ashula va yallalar yaratdi. Uning «Bulbul», «Mubtalo qilursan», «Madhingni kuylay», «Yor vasli», «Hayot qo'shig'i», «Azim daryo», «Ko'ngil», «Egam», «Oshkor bo'lursan», «Qalbimda o'zing borsan», «Sen quvonchim» lirik qo'shiqari va ashulalari, romanslari taniqli xonanda va hofizlar repertuarlaridan munosib o'rın olgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin yaratgan qo'shiqlari muallif ijodida katta sahifani tashkil etdi. Yaratgan qo'shiqlari orasida: «Sohibqiron Temur», «O'zbekiston», «Vatan madhi», «Bahor jilosи», «Vatanim — tinchlik bog'i», «O'zbekiston suluv qizlari» va boshqalar alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek musiqa tariöiga oid ma'lumotlarni qidirish, to'plash va notaga yozib olib, ilmiy-nazariy o'rganish hamda mutaõassislariga yetkazish ishiga Rahmatjon Tursunov salmoqli hissa qo'shdi. U Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutining «Öalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik» kafedrasи ijrochi-o'qituvchilar yillar davomida tayyorlab, sinovdan o'tkazgan va takomillashtirilgan nota yozuvlarini saralab, jamlab qo'llanmalarni nashrdan chiqardi. «Öalq kuylarini notalashtirish», «Ashula va raqs ansambl bilan ishslash uslubiyoti» kabi bir necha qo'llanmalarni nashrdan chiqarib, mutaõassislariga yetkazdi.

Rahmatjon Tursunov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

MUNDARIJA

Kirish	3
Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi	5
Musiqiy asarlarning badiiy va musiqiy tahlili	11

JAMOA BO'LIB QO'SHIQ KUYLASH UCHUN ASARLAR

I sinf	14
Baxtiy erkatoy. H.Muhammad, T. Toshmatov	14
O'ynasangchi, tipratikon. P. Mo'min, N. Norxo'jayev	15
Nisholda. R. Tolib, D. Omonullayeva	17
Yangi yil archasi. M. Abdushukurova, A. Berlin	19
Qadim turon. P. Mo'min, N. Norxo'jayev	21
Etikcham. Q. Ota, D. Omonullayeva	22
Inoq o'ynaymiz. G'. Komilov, F. Nazarov	24
Nevaralar qo'shig'i. S. Barnoyev, N. Norxo'jayev	25
Diloromning qo'shig'i. I. Donish, D. Omonullayeva	27
Ayiqlpolvonlar bog'chasi. H. Muhammad, T. Toshmatov	29
Bolalar va g'ozlar. M. Qo'shmoqov, J. Najmiddinov	31
II Sinf	33
Paxtaoy. T. Ilhomov, F. Nazarov	33
Kakligim. N. Orifjonov, N. Norxo'jayev	34
Kichkintoymiz — gjijingtoymiz. P. Mo'min, K. Kenjayev	35
Quyon. I. Muslim, Q. Mamirov	38
Oy bo'lamiz — toy bo'lamiz. S. Barnoyev, H. Rahimov	40
Yangi yilim, yaxshi yilim. P. Mo'min, D. Zokirov	42
Buvijonim. Y. Suyunov, D. Omonullayeva	43
Shaftoliga savolim. P. Mo'min, N. Norxo'jayev	45
Navro'zim — sho'x sozim. H. Rahmat, N. Norxo'jayev	47
Kapalak va kamalak. N. Narzullayev, N. Norxo'jayev	49
Muzqaymoq. X. Qayumov, A. Mansurov	51
G'ildiragim. T. Bahromov, Sh. Yormatov	53
III Sinf	56
Salom bergen bolalar. P. Mo'min, N. Norxo'jayev	56
Aziz bo'ston — O'zbekiston. M. Mirzo, D. Omonullayeva	58
Ochil, paxtajon. T. Yo'Idosh, M. Burhonov	60
Qo'zichog'im-o'yinchoq. Q. Botirov, A. Mansurov	62
Diyor madhi. H. Rahmat, N. Norxo'jayev	64
Qish chog'lari. P. Mo'min, F. Nazarov	66
Ay-yay-yay. M. Muhamedova, Sh. Yormatov	68
Dastyor qiz. Sh. Sa'dulla, S. Boboyev	71
Buvijonim yaxshisiz. G'. Komilov, N. Norxo'jayev	73
Gullar manim kulganim. P. Mo'min, N. Norxo'jayev	76
Sog'lom avlod qo'shig'i. S. Barnoyev, Sh. Yormatov	79

Navbahor. Shohismoil, R. Tursunov.....	83
IV sinf	85
O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi. A. Oripov, M. Burhonov.....	85
Oy Vatanim. E. Qambarov, Sh. Yormatov.....	89
Oq paxta terdik, terdik. P. Mo'min, N. Norxo'jayev.....	91
Aziz ustozlar. To'ljin, S. Boboyev.....	93
Yaxshi bola. P. Mo'min, N. Norxo'jayev	96
Biz askarmiz! I. Rahmon, N. Norxo'jayev.....	99
Gul terdi gullar. P. Mo'min, N. Norxo'jayev.....	101
Navro'zim. Sh. Qurbon, D. Omonullayeva	103
Sho'x bolaman. S. Jabbor, H. Rahimov.....	105
Ikki qo'y mang o'qituvchim. P. Mo'min, Sh. Yormatov	108
 MUSIQA SAVODI	
Notalarning bo'linishi va sanalishi	112
Notalarning hajm jihatidan joylanishi	112
Alteratsiya belgilari.....	113
Intervallar	113
 MUSIQA TINGLASH UCHUN ASARLAR	
I sinf	116
Andijon polkasi. H. Rahimov.....	116
Yurish marshi. F. Nazarov	118
Chitti gul. H. Rahimov	119
Do'loncha. H. Rahimov	119
Chertmak. H. Rahimov	120
Yallama yorim. H. Rahimov	121
Navro'z raqsi. D. Omonullayeva.....	122
Olmacha anor. N. Norxo'jayev	123
Asp bo'laman. H. Rahimov	124
II sinf	125
Qashqarcha. H. Rahimov	125
Paxta raqsi. S. Abramova.....	126
Nizongul. D. Omonullayeva	127
Polka. M. Glinka	128
Marsh. D. Omonullayeva.....	129
Jasur chavandoz. R. Shuman	130
Bahor valsi. M. Mirzayev	131
Podachi. I. Akbarov.....	133
Polka. X. Izamov	134
III sinf.....	135
O'zbek xalq qo'shig'i. H. Rahimov.....	135
Qari navo. H. Rahimov	136
Qashqarcha. N. Norxo'jayev	137
Usmoniya. O'zbek xalq kuyi.....	139
Jamalagim. D. Zokirov.....	141
Pyesa. R. Tursunov	142
Karvon. D. Omonullayeva	144
Chaman ichra. X. Azimov	145
Olma pishganda keling. H. Rahimov	147
O'zbek xalq kuyi. H. Rahimov	148
IV sinf.....	149
O'zbekiston. H. Rahimov	149

Qari navo. N. Norxo'jayev	150
G'ayra-g'ayra. N. Norxo'jayev	151
Buxorcha. N. Norxo'jayev	152
Namanganning olmasi. H. Rahimov	154
Laylak (a-kapella). Uyg'un, G'. Qodirov	155
Ko'klam. A. Bo'riboyev, S. Boboyev	156
Qo'g'irchoqlar bilan raqs. D. Omonullayeva	157
Sarbozcha. O'zbek xalq kuyi	158

TANIQLI BASTARORLAR HAYOTI VA IJODIDAN

Mutal Burhonov	159
Yunus Rajabiy	160
Muxtor Ashrafy	161
To'xtasin Jalilov	162
Muhammadjon Mirzayev	163
Tolibjon Sodiqov	164
Fattoh Nazarov	165
Sobir Boboyev	166
Doni Zokirov	167
G'ofur Qodirov	168
Abdurahim Muhamedov	169
To'lqin Toshmatov	170
Komil Kenjayev	171
Shermat Yormatov	172
Rustam Abdullayev	173
Habibulla Rahimov	174
Nadim Norxo'jayev	175
Avaz Mansurov	176
Dilorom Omonullayeva	177
Farhod Alimov	178
Qo'ldosh Mamirov	179
Rahmatjon Tursunov	180

Gulnora Matbulalovna Sharipova
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti

MUSIQA VA UNI O'QITISH METODIKASI

O'quv qo'llanma

«TURON-IQBOL» nashriyoti — 2006

Muharrir	A. Ziyodov
Øexnik muharrir	T. Smirnova
Rassom	J. Gurova
Musahhih	S. Abdunabiyeva
Kompyuterda sahifalovchi	E. Kim

Bosishga 14.04.2006 da ruxsat etildi. Bichimi 60½84¹/₈. «Tayms» garnitura.
Ofset bosma. Shartli b.t. 23,0. Nashr b.t. 21,39. Jami 1550 nusxa. 46-raqamli buyurtma.

«ARNAPRINT» MCHJ da sahifalanib, chop etildi.
Øoshkent, H. Boyqaro ko'chasi, 41.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

G. M. SHARIPOVA

MUSIQA VA UNI O'QITISH METODIKASI

O'quv qo'llanma

«TURON-IQBOL»
TOSHKENT
2006